


631.371(0-15)
X-87

T.S. XUDOYBERDIEV,
B.P. SHAYMARDANOV, K.E. USMONOV

ISSIQLIK TEXNIKASI

/ O`QUV QO`LLANMA /



TOSHKENT – 2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

T.S. XUDOYBERDIYEV, B.P. SHAYMARDANOV, K.E. USMONOV

ISSIQLIK TEXNIKASI

fanidan masalalar to'plami

/O'QUV QO'LLANMA/

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy
birlashmasi faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT - 2015

Ushbu o'quv qo'llanma OO'MTV ning 28.02.2008 yil № 51 -sonli
buyrug'iga asosan chop etishga ruxsat etilgan

GUVOHNOMA №1692

UDK 631.371:621.1:638.264(075.8)

Taqrizchilar: **A.Komilov** – Toshkent Davlat Agrar Universiteti dotsenti.


A.Isaqov– TIMI qoshidagi Yunusobod akadem lisey
direktori, dotsent.

M.Abdurasulov – Toshkent irrigatsiya va melioratsiya
instituti “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash”
kafedrası dotsenti.

O'quv qo'llanma quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari
uchun tavsiya etilgan:

- Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash,
- Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish,
- Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash,
- Suv xo'jaligida meliorativ, transport mashinalari va
- Qurilmalaridan foydalanish, ularga servis xizmati ko'rsatish,
- Avtomatika va boshqaruv (suv xo'jaligida),
- Elektroenergetika (suv xo'jaligida)

648460



АННОТАЦИЯ

O'quv qo'llanmada «Issiqlik texnikasi» fanining «Texnikaviy termodinamika», «Issiqlik massa almashinuvi», “Issiqlikni qishloq va suv xo'jaligida qo'llash” bo'limlari bo'yicha masalalarni yechish tartibi va mustaqil ish uchun topshiriqlar keltirilgan.

Qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarishida issiqlik texnikasi fanining xususiyatlarini hisobga olib termodinamika va issiqlik massa almashinuvi nazariyalari asoslari, issiqlikni qishloq va suv xo'jaligida qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan.

Qo'llanma qishloq va suv xo'jaligi bilim sohasi oliy o'quv yurtlarining ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

V uchebnom posobiye dani prakticheskiye osnovi teplotexniki dlya resheniya zadach i zadaniy po razdelam texnicheskoy termodinamiki, teplomassoobmen, primeneniya tepla v selskom i vodnom xozyaystve primenitelno k osbennostyam selskogo i vodnogo xozyaystva.

Uchebnik rasschitan dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy selskogo i vodnogo xozyaystva.

ANNOTATION

The book has materials about theorecal and practical fundamentation of termodinamic, termomasschanging, fuel and fueling process and their using in agriculture which has termotechnic.

This book is recommended for students of agriculture and irigation branches of correspondence and directs studying .

/T.S. Xudoyberdiev, B.P. Shaymardanov, K.E. Usmonov/

«ISSIQLIK TEXNIKASI» fanidan masalalar to'plami
/O'quv qo'llanma/. T.: TIMMI. 2015. 135 bet.

© TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI (TIMI), 2015 y.

Kirish

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ravnaqi ko'p jihatdan oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari yetishtirib beradigan mutaxassislarning bilimi va saviyasi bilan chambarchas bog'liq.

Respublikadagi energetik manbalardan to'g'ri foydalanish, qurilmalarning samaradorligini oshirish, issiqlik manbalaridan qishloq va suv xo'jaligida to'g'ri foydalanish, atrof-muhitni ekologik jihatdan himoyalash masalalarini fan va texnika yutuqlari asosida o'rganish injenerlar zimmasiga yuklatiladi.

Qo'llanmada energetik manbalar asosini o'rganishda issiqlik dinamikasi fani qonunlari, issiqlikning uzatilish qonunlari va qishloq xo'jaligida issiqlikni qo'llash injenerlik hisoblar asoslari, energiya manbalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha amaliy masalalar yechish keltirilgan.

Masalalar to'plamidan "Issiqlik texnikasi" fanida o'tiladigan ma'ruzalarga, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar qisqa matnlariga, nazorat ishlari, uy vazifalari va o'tiladigan laboratoriya ishlariga tayangan holda foydalaniladi.

Asosiy e'tiborni ko'rilyotgan masalaladagi jarayonlarning fizik mohiyatiga hamda ko'rilyotgan ob'ektning asosiy tavsiflariga qaratish lozim bo'ladi.

Masalalar to'plamidan foydalanishda issiqlik texnikasiga oid ma'lumotnoma qo'llanmalardan unumli foydalanish ko'zda tutilgan.

I - bo'lim. TEXNIKAVIY TERMODINAMIKA

1. IDEAL GAZLARNING HOLAT TENGLAMASI

1-masala

16 kg havoning bosimi $P = 0,24$ MPa va harorati $t = 36^{\circ}\text{C}$ bo'lgandagi hajmi topilsin.

Yechish:

quyidagi holat tenglamasidan $PV = MRT$ havoning hajmini topamiz:

$$V = \frac{M \cdot R \cdot T}{P} = \frac{16 \cdot 287 \cdot (36 + 273)}{0,24 \cdot 10^6} = 5,9 \text{ m}^3$$

bu yerda $R = \left(\frac{8314}{29} \right) = 287 \text{ J/kg } ^{\circ}\text{C}$

$$\mu = 29 \text{ mol [ilova, jadval 1]}.$$

2-masala

Hajmi 60 m^3 bo'lgan idishning ichidagi karbonat angidridining (SO_2) harorati $t = 17^{\circ}\text{C}$ va bosimi $P = 7,5$ MPa ga teng. Gazning massasini aniqlang.

Yechish:

Ideal gazning holat tenglamasidan gazning massasini topamiz:

$$M = \left(\frac{P \cdot V}{R \cdot T} \right) = \frac{7,5 \cdot 10^6 \cdot 60}{189 \cdot 290} = 8200 \text{ kg},$$

bu yerda $R = \frac{8314}{\mu} = \frac{8314}{44} = 189 \text{ J/kg } ^{\circ}\text{C}$

$$\mu = 44 \text{ mol [ilova, jadval 1]}.$$

3-masala

Hajmi 45 litr idish ichidagi gazning harorati $t = 6^{\circ}\text{C}$, bosimi $P = 1,7$ MPa va massasi $M = 66$ kg. Idish ichidagi gazning turini aniqlang.

Yechish:

Idish ichidagi gazning turini uning molekulyar massasi yordamida aniqlash mumkin. Buning uchun holat tenglamasidan gazning molekulyar massasini topamiz:

$$\mu = \frac{8314 \cdot M \cdot T}{P \cdot V} \approx \frac{8314 \cdot 66 \cdot 279}{1,7 \cdot 10^6 \cdot 45} = 2 \text{ mol}$$

Demak, idish ichida vodorod ekan.

1-vazifa

Sig'imi V litr ballon ichidagi gazning..bosimi P_1 , MPa va harorati t_1 °C. Gazning bir qismi ishlatilgandan keyin ballon ichidagi bosim P_2 , MPa va harorati t_2 °C. Ishlatilgan gazning massasi aniqlansin. Masalani yechish uchun ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval 1

Shifrling oxirgi soni	Gaz	V l	P_1 MPa	t_1 °C	Shifrling oxiridan oldingi soni	P_2 MPa	t_2 °C
0	CO ₂	60	0,8	27	0	0,6	20
1	xavo	110	1,2	54	1	0,4	18
2	O ₂	20	7,0	85	2	0,7	8
3	SO	70	4,3	11	3	1,4	4
4	N ₂	20	2,0	90	4	0,9	40
5	SN ₄	140	0,6	21	5	0,2	7
6	O ₂	10	3,2	34	6	1,7	18
7	N ₂	40	1,0	85	7	0,5	42
8	N ₃	90	1,8	36	8	1,0	20
9	SO ₂	200	9,0	40	9	4,5	20

2. GAZLAR ARALASHMASI

4-masala

Gazlar aralashmasining massaviy tarkibi quyidagilardan iborat:

N₂ = 8,4 %; SO₂ = 17%; O₂ = 48%; N₂ = 26,6% . Uning gaz doimiysi, tuyulma molekulyar massasi va hajmiy ulushlari topilsin.

Yechish:

Aralashmaning gaz doimiysini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$R_{ar} = \sum_{i=1}^n m_i \cdot R_i, \quad J/kg^{\circ}C$$

$$\begin{aligned} R_{ar} &= m_{H_2} \cdot R_{H_2} + m_{CO_2} \cdot R_{CO_2} + m_{O_2} \cdot R_{O_2} + m_{N_2} \cdot R_{N_2} = \\ &= 0,084 \cdot \frac{8314}{2} + 0,17 \cdot \frac{8314}{44} + 0,48 \cdot \frac{8314}{32} + 0,266 \cdot \frac{8314}{28} = 584,2 \quad J/kg^{\circ}C \end{aligned}$$

$$\mu_{H_2} = 2 \quad \text{моль}$$

$$\mu_{CO_2} = 44 \quad \text{моль}$$

$$\mu_{O_2} = 32 \quad \text{моль}$$

$$\mu_{N_2} = 28 \quad \text{моль}$$

2. Aralashmaning tuyulma molekulyar massasini quyidagi formuladan aniqlaymiz.

$$\mu_{ar} = \frac{1}{\sum_{i=1}^n \frac{m_i}{\mu_i}}$$

$$\mu_{ar} = \frac{1}{\frac{m_{H_2}}{\mu_{H_2}} + \frac{m_{CO_2}}{\mu_{CO_2}} + \frac{m_{O_2}}{\mu_{O_2}} + \frac{m_{N_2}}{\mu_{N_2}}} =$$

$$= \frac{1}{\frac{0,084}{2} + \frac{0,17}{44} + \frac{0,48}{32} + \frac{0,266}{28}} = 14,3 \quad \text{mol}$$

3. Aralashmaning hajmiy ulushlarini quyidagi formuladan aniqlay-

miz:

$$r_i = \frac{\frac{m_i}{\mu}}{\sum_{i=1}^n \frac{m_i}{\mu_i}}$$

$$r_{H_2} = \frac{\frac{0,084}{2}}{\frac{0,084}{2} + \frac{0,17}{44} + \frac{0,48}{32} + \frac{0,266}{28}} = 0,597 \quad \%$$

$$r_{CO_2} = \frac{\frac{0,17}{44}}{\frac{0,084}{2} + \frac{0,17}{44} + \frac{0,48}{32} + \frac{0,266}{28}} = 0,055 \quad \%$$

$$r_{O_2} = \frac{\frac{0,48}{32}}{\frac{0,084}{2} + \frac{0,17}{44} + \frac{0,48}{32} + \frac{0,266}{28}} = 0,213 \quad \%$$

$$r_{N_2} = \frac{\frac{0,266}{28}}{\frac{0,084}{2} + \frac{0,17}{44} + \frac{0,48}{32} + \frac{0,266}{28}} = 0,135 \quad \%$$

2-vazifa

Hajmi $V \text{ m}^3$ bo'lgan idishning ichidagi gazlarning aralashmasini hajmiy tarkibi quyidagilardan iborat: N_2 , SO , SO_2 , N_2 , SO_2 .

Aralashmaning harorati t va bosimi P bo'lganda uning solishtirma gaz doimiysi, tuyulma malekulyar massasi, massaviy ulushlari, parsial bosimlari va massasi topilsin.

Masalani yechish uchun ma'lumotlar 2-jadvalda berilgan.

Jadval 2

Shifrning oxirgi soni	$V, \text{ m}^3$	$P, \text{ MPa}$	$t, \text{ }^\circ\text{C}$	Shifrning oxiridan oldingi soni	$N_2, \%$	$SO, \%$	$SO_2, \%$	$N_2, \%$	$SO_2, \%$
0	200	0,10	15	0	7,0	27,6	2,0	4,8	58,6
1	220	0,15	17	1	45,0	22,5	7,0	13,5	12,0
2	240	0,20	20	2	20,0	20,0	15,0	30,0	15,0
3	230	0,25	27	3	57,0	6,0	23,0	2,0	12,0
4	210	0,30	0	4	50,0	18,0	2,0	10,0	20,0
5	180	0,40	10	5	48,0	10,0	5,0	5,0	32,0
6	160	0,10	12	6	30,0	15,0	9,5	5,5	40,0
7	140	0,20	25	7	19,5	18,0	10,5	5,0	17,0
8	170	0,35	29	8	9,6	10,5	15,5	10,0	54,5
9	150	0,45	18	9	14,5	22,5	18,5	6,5	38,0

3. GAZLARNING ISSIQLIK SIG'IMI

5-masala

Issiqlik sig'imining haroratga bog'liq ravishda o'zgarishi chiziqli bo'lmagan holat uchun, o'zgarmas bosim ostida, tarkibi $r_{CO_2} = 0,145\%$, $r_{O_2} = 0,065\%$, $r_{N_2} = 79,0\%$ bo'lgan 1 m^3 gazlarning aralashmasini $200 \text{ }^\circ\text{C}$ dan $1200 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha qizdirish uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdori topilsin.

Yechish.

qizdirish uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdori quyidagi tenglamadan topiladi:

$$q_p = C'_{pm2ap} \cdot t_2 - C'_{pm1ap} \cdot t_1 =$$

$$\sum_{i=1}^n C'_{pm2i} \cdot r_i \cdot t_2 - \sum_{i=1}^n C'_{pm1i} \cdot r_i \cdot t_1 =$$

$$= (C_{pm2CO_2} \cdot r_{CO_2} + C_{pm2O_2} \cdot r_{O_2} + C_{pm2N_2} \cdot r_{N_2}) \cdot t_2 - \\ - (C_{pmlCO_2} \cdot r_{CO_2} + C_{pmlO_2} \cdot r_{O_2} + C_{pmlN_2} \cdot r_{N_2}) \cdot t_1;$$

Bu tenglamaga ilovada berilgan 4, 5 va 8 jadvallardan issiqlik sig'irlarining qiymatlarini qo'ysak kerak bo'lgan issiqlik miqdori topiladi:

$$q_p = (2,2638 \cdot 0,145 + 1,5005 \cdot 0,065 + 1,4202 \cdot 0,79) \cdot 1200 - \\ - (1,7373 \cdot 0,145 + 1,3352 \cdot 0,065 + 1,3038 \cdot 0,79) \cdot 200 = 1582 \\ q_r = 1582 \text{ kJ/m}^3$$

3-vazifa

Hajmi V bo'lgan ballonda harorati t_1 va bosimi P_1 bo'lgan gaz bor. Gazni sovutgandan keyin uning harorati t_2 gacha pasaygan. Gazning massasi, keyingi bosimi va chiqarilgan issiqlik miqdori topilsin:

1-holat - $c = \text{sonst}$

2-holat - $c = f(t)$ chiziqli;

3-holat - $c = f(t)$ egri chiziqli.

Masalani yechish uchun ma'lumotlar 3- jadvalda berilgan.

Jadval 3

Shifrnig oxirgi soni	V, m^3	P_1, MPa	$t_1, ^\circ\text{C}$	Shifrnig oxiridan oldingi soni	$t_2, ^\circ\text{C}$	G a z
0	0,11	1,0	100	0	27	CO_2
1	0,15	0,5	90	1	20	O_2
2	0,20	0,8	60	2	7	CO
3	0,35	1,5	120	3	17	h a v o
4	0,45	2,0	150	4	27	N_2
5	0,70	0,5	200	5	25	SO_2
6	0,30	0,9	80	6	20	H_2
7	0,25	1,2	75	7	15	H_2O
8	0,55	2,5	40	8	19	CO
9	0,45	2,1	130	9	10	H_2

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Termodinamika nimani o'rganadi? Qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarishi sohalarida amaliy masalalar yechishda texnikaviy termodinamikaning ahamiyatini ta'riflang.
2. Termodinamika tizimi nima?
3. Holat parametrlari tavsifini va aniqlanishini keltiring. Mos hollarda misollar keltiring.

4. Holat issiqlik parametrlari asosiy ma'lumotlarini gapirib bering.
5. Ideal va real ishchi jism uchun holat parametrlari orasidagi funksional bog'lanishlarni keltiring. Gaz doimiysi nima? Gaz aralashmasi uchun holat tenglamasini keltiring va tenglamaga kiritilgan har bir kattaliklar fizik ma'nosini ayting.
6. Gaz aralashmasi uchun parsial bosim va parsial hajm qanday aniqlanadi? Gaz aralashmasi uchun gaz doimiysi, komponentlarning massaviy va xajmiy ulushlari qanday aniqlanadi?

4. TERMODINAMIKA JARAYONLARI

6-masala

Boshlang'ich ko'rsatkichlari $P_1 = 6,8 \text{ MPa}$ va $t_1 = 12^\circ \text{C}$ bo'lgan $V = 300 \text{ l}$ hajmidagi karbonat ангидриди (SO_2) $t_2 = 85^\circ \text{C}$ gacha qizdirilgan.

Gazning keyingi bosimini, massasini va qizdirish uchun sarflangan issiqlik miqdorini izoxorik va izobarik jarayonlar uchun aniqlang. $c =$ sonst deb qabul qilingan.

Yechish.

a) Izoxorik jarayon uchun gazning keyingi bosimi

$$P_2 = \frac{P_1 \cdot T_2}{T_1} = \frac{6,8 \cdot 358}{285} = 8,55 \text{ MPa}$$

Karbonat ангидридning massasini ideal gazlarning holat tenglamasidan aniqlaymiz:

$$P_1 \cdot V_1 = M \cdot R \cdot T_1$$

$$M = \frac{P_1 \cdot V}{R \cdot T_1} = \frac{6,8 \cdot 10^6 \cdot 300 \cdot 10^{-3}}{189 \cdot 285} = 38 \text{ kg}$$

Sarflangan issiqlik miqdori

$$Q_v = M c_v (t_2 - t_1) = 38 \cdot 0,66 \cdot (85 - 12) = 1834 \text{ kJ}$$

$$c_v = \frac{\mu c_v}{\mu} = \frac{29,31}{44} = 0,66 \text{ kJ/kg}^\circ \text{C}$$

b) Izobarik jarayon uchun:

Bu jarayonda $P = \text{const}$ bo'lgani uchun $P_2 = P_1 = 6,8 \text{ MPa}$, gaz miqdori ham o'zgarmas - $M = 38 \text{ kg}$.

Sarflangan issiqlikning miqdori

$$Q_p = M \cdot c_p \cdot (t_2 - t_1) = 38 \cdot 0,86 \cdot (85 - 12) = 2380 \text{ kJ}$$

$$c_p = \frac{\mu c_p}{\mu} = \frac{37,68}{44} = 0,86 \text{ kJ/kg}^\circ \text{C}$$

7-masala

Massasi $M = 115$ kg, boshlang'ich holat ko'rsatkichlari $P_1 = 3,7$ MPa va $t_1 = 50^\circ\text{C}$ bo'lgan vodorod $P_2 = 0,25$ MPa gacha kengaygan.

Izotermik va adiabatik kengayish jarayonlari uchun vodorodning oxirgi holat ko'rsatkichlarini, issiqlik miqdorini, bajarilgan ishni va ichki energiyani o'zgarishini aniqlang.

Yechish.

a) Izotermik jarayon uchun:

Bu jarayonda $T = \text{const}$ bo'lgani uchun $t_2 = t_1 = 50^\circ\text{C}$.

Ideal gazlarning holat tenglamasidan vodorodning keyingi hajmini aniqlaymiz:

$$V_2 = \frac{M \cdot R \cdot T_2}{P_2} = \frac{115 \cdot 4157 \cdot 323}{0,25 \cdot 10^6} = 617 \text{ m}^3$$

Vodorodni qizdirish uchun sarflangan issiqlik miqdori

$$Q = M \cdot R \cdot T_1 \cdot \ln \frac{P_1}{P_2} = 115 \cdot 4157 \cdot 323 \cdot \ln \frac{3,7}{0,25} = 42,4 \cdot 10^7 \text{ MJ}$$

Bajarilgan ishi $L = Q = 424 \text{ MJ}$

Izotermik jarayonda $T_1 = T_2$ bo'lganligi uchun ichki energiyani o'zgarishi $\Delta u = c_v \cdot (T_2 - T_1) = 0$

b) Adiabatik jarayon uchun:

Vodorodning keyingi harorati

$$T_2 = T_1 \cdot \left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} = 323 \cdot \left(\frac{0,25}{3,7} \right)^{1,4} = 150 \text{ K}$$

Hajmi
$$V_2 = \frac{M \cdot R \cdot T_2}{P_2} = \frac{115 \cdot 4157 \cdot 150}{0,25 \cdot 10^6} = 287 \text{ m}^3$$

Adiabatik jarayonda $Q = 0$.

Ichki energiyani o'zgarishi

$$\Delta u = -L = -\frac{M \cdot R}{k-1} (T_1 - T_2) = -\frac{115 \cdot 4157}{1,4-1} (323-150) = -208 \cdot 10^6 \text{ J}$$

8-masala

Harorati $t_1 = 24^\circ\text{C}$, massasi 1 kg havo politropik jarayonda holati o'zgarishi natijasida bosimi $P_2 = 2,4$ MPa va ichki energiyasining o'zgarishi $\Delta u = 30$ kJ/kg ga teng bo'ldi. Bunda $1 = -52$ J/kg miqdorda ish sarflandi.

Shu jarayon uchun politropik ko'rsatkichini, havoning avvalgi va keyingi holat ko'rsatkichlarini, entropiya va entalpiyalari o'zgarishini aniqlang.

Yechish:

Ichki energiyaning o'zgarishi tenglamasi $\Delta u = c_v(T_2 - T_1)$ dan jarayon oxiridagi havoning haroratini topamiz:

$$T_2 = \frac{\Delta u}{c_v} + T_1 = \frac{30}{0,72} + 297 = 339K, \text{ bu yerda}$$

$$c_g = \frac{\mu c_g}{\mu} = \frac{20,93}{29} = 0,72 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

$$\mu_{sv} = 20,93 \text{ mol} \quad [\text{ilova, 2-jadval}].$$

Bajarilgan ish tenglamasi $l = \frac{R}{n-1} \cdot (T_1 - T_2)$ dan politropik ko'rsatkichni aniqlaymiz:

$$n = \frac{R}{l} \cdot (T_1 - T_2) + 1 = \frac{0,287}{-52} \cdot (297 - 339) + 1 = 1,23,$$

bu yerda

$$R = \frac{8314}{\mu} = \frac{8314}{29} = 287 \text{ J/kg}^\circ\text{C} = 0,287 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

Havoning boshlang'ich bosimini quyidagi tenglamadan topamiz:

$$\left(\frac{T_2}{T_1} \right)^{\frac{n}{n-1}} = \frac{P_2}{P_1},$$

$$P_1 = \frac{P_2}{\left(\frac{T_2}{T_1} \right)^{\frac{n}{n-1}}} = \frac{2,4}{\left(\frac{339}{297} \right)^{\frac{1,23}{1,23-1}}} = 1,2 \text{ MPa}$$

Havoning boshlang'ich solishtirma hajmi

$$v_1 = \frac{R \cdot T_1}{P_1} = \frac{287 \cdot 297}{1,2 \cdot 10^6} = 0,081 \text{ m}^3 / \text{kg}$$

keyingi solishtirma hajmi

$$v_2 = \frac{R \cdot T_2}{P_2} = \frac{287 \cdot 339}{2,4 \cdot 10^6} = 0,041 \text{ m}^3 / \text{kg}$$

Politropik jarayonda entropiyaning o'zgarishi

$$\Delta S = c_v \frac{n-k}{n-1} \ln \frac{T_2}{T_1} = 0,72 \frac{1,23-1,4}{1,23-1} \ln \frac{339}{297} = -0,07 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C},$$

Entalpiyaning o'zgarishi $\Delta h = c_p \cdot (T_2 - T_1) = 1,01 \cdot (339 - 297) = 425 \text{ kJ/kg}$

bu yerda

$$c_p = \frac{\mu c_p}{\mu} = \frac{29,31}{29} = 1,01 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

$$\mu_{cr} = 29,31 \text{ mol} \quad [\text{ilova, 2-jadval}].$$

4-vazifa

Harorati t_1 , bosimi P_1 va massasi M bo'lgan havo politropik jarayonda bosimi P_2 gacha kengaygan (siqilgan). Jarayonning politropik ko'rsatkichi - n . Keyin esa $P_2 = \text{const}$ bo'lgan holda havoga Q miqdorda issiqlik beriladi (olinadi).

Politropik va izobarik jarayonlar oxiridagi havoning holat ko'rsatkichlarini, har bir jarayondagi issiqlikning miqdorini, bajarilgan (sarflangan) ishni va ichki energiyaning o'zgarishini aniqlang. Masalani yechish uchun ma'lumotlar 4-jadvalda keltirilgan.

Jadval 4

Shifrnig oxirgi soni	P_1 , MPa	P_2 , MPa	n	Shifrnig oxiridan oldingi soni	M , kg	t_1 , °C	Q , kJ
0	0,1	5,0	1,3	0	10	17	4000
1	2,5	0,2	1,28	1	20	27	7500
2	0,15	4,0	1,25	2	30	150	- 4000
3	0,2	5,0	1,24	3	35	100	- 5000
4	3,0	0,5	1,32	4	45	120	2000
5	0,3	0,1	1,2	5	50	110	6000
6	0,8	0,1	1,25	6	25	12	- 7000
7	1,2	1,3	1,3	7	10	10	4500
8	0,15	3,0	1,25	8	25	37	3000
9	1,5	0,2	1,2	9	15	57	2500

Nazorat savollari va topshiriqlari

1. Qaytuvchan jarayon va qaytuvchan sikl nima?
2. Tizim ichki energiyasi ma'nosi nima? U mikrozarralarning qaysi turdagi harakatlaridan iborat? Ichki energiya holat parametri ekanligini isbotlang. Ideal va real ishchi jism ichki energiyalari farqi nimada?
3. Ishni ifodasini ketirib chiqaring. PV–koordinatlarda jarayon egri chizig'i ostidagi maydon son jihatdan ishga tengligini tasvirlang.
4. Ish va issiqlik nima? Ular orasidagi umumiylik va farqlanishlar nimalardan iborat?
5. Termodinamikaning birinchi tenglamasini keltirib chiqaring.
6. Haqiqiy va o'rtacha issiqlik sig'imi nim? Ular orasidagi bog'lanishni (grafik va analitik) ko'rsating. Issiqlik sig'imining har xil turlarini sanang, ularning o'lchov birliklarini ayting.
7. Gaz aralashmalari issiqlik sig'imi, komponentlari massaviy va hajmiy ulushlari orqali qanday ifodalanadi?

8. Entalpiya nima, o'lchamlari qanday? Ichki energiya va entalpiya uchun hisoblash ifodalarini keltiring.
- a. Termodinamika birinchi qonunining entalpiya orqali ifodalanishini keltiring.
9. TS-koordinatalarida jarayon egri chizig'i ostidagi maydon son jihatdan ishchi jisimga berilgan (yoki olingan) issiqlikka tengligini ko'rsating.
10. Termodinamika birinchi qonuni tenglamasining har xil ko'rinishlari, issiqlik sig'imi formulalarini, entalpiya, entropiya foriulalaridan foydalanib, issiqlik, issiqlik miqdorini hisoblash ifodalarini keltiring.
11. Yopiq tizimlar uchun ideal gazning asosiy dinamik jarayonlari tahlilini bering. Ish ,issiqlik miqdori, entropiya, holat asosiy parametrlarini orasidagi bog'lanishlarni keltirib chiqaring.
12. Politrop jarayon umumiy jarayon ekanligini isbotlang. PV , TS - koordinatalarda politropik kengayish va siqish jarayonlarining har xil guruhlari tahlilini keltiring.

5. TERMODINAMIK SIKLLAR

9-masala

Agar issiqlik manbaining harorati $t_1 = 327^\circ\text{C}$, issiqlik qabul qiluvchiniki esa $t_2 = 27^\circ\text{C}$, eng katta bosim 2 MPa va eng kichik bosim 0,12 MPa bo'lsa, Karno siklining xarakterli nuqtalaridagi 1 kg havoning holat ko'rsatkichlari, bajargan ishi, issiqlik foydali ish koeffitsiyenti (FIK), siklga kiritilgan va sikldan chiqarilgan issiqlik miqdorlari aniqlansin. Siklning T-S diagrammasi qurilsin.

Yechish.

1. Xarakterli nuqtadagi ko'rsatkichlarni aniqlaymiz:

1 - nuqta uchun (1-rasm):

Masalaning shartiga ko'ra: $P_1 = 2$ MPa, $T_1 = t_1 + 273 = 600^\circ\text{C}$.

Solishtirma hajmni ideal gaz holat tenglamasidan topamiz:


$$v_1 = \frac{R \cdot T_1}{P_1} = \frac{287 \cdot 600}{2 \cdot 10^6} = 0,86 \quad \text{m}^3 / \text{kg}$$

2 - nuqta uchun:

Karno siklining shartiga ko'ra:

$$T_1 = T_2 = 600 \text{ K.}$$

2 - 3 adiabatik jarayon bo'lganligi uchun:



Rasm 1. Karno siklining P-V diagrammasi

$$\frac{P_3}{P_2} = \left(\frac{T_3}{T_2} \right)^{\frac{k}{k-1}} = \left(\frac{27 + 273}{600} \right)^{\frac{1,4}{1,4-1}} = 0,089,$$

Bundan

$$P_2 = \frac{P_3}{0,089} = \frac{0,12}{0,089} = 1,35 \text{ MPa.}$$

1-2 izotermik jarayon bo'lganligi uchun $\frac{P_1}{P_2} = \frac{v_2}{v_1}$, bundan

$$v_2 = \frac{P_1 \cdot v_1}{P_2} = \frac{2 \cdot 0,089}{1,35} = 0,127 \text{ m}^3/\text{kg}$$

3 – nuqta uchun: masalaning shartiga ko'ra

$$P_3 = 0,12 \text{ MPa, } T_3 = 27 = 273 = 300 \text{ K}$$

Solishtirma hajmni holat tenglamasidan topamiz:

$$v_3 = \frac{R \cdot T_3}{P_3} = \frac{287 \cdot 300}{0,12 \cdot 10^6} = 0,71 \text{ m}^3/\text{kg.}$$

4 – nuqta uchun: 3 - 4 izotermik jarayon bo'lgani uchun $T_3 = T_4 = 300 \text{ K.}$

4 - 1 adiabatik jarayon bo'lgani uchun

$$\frac{P_1}{P_4} = \left(\frac{T_1}{T_4} \right)^{\frac{k}{k-1}} = \left(\frac{600}{300} \right)^{\frac{1,4}{1,4-1}} = 11,2, \text{ bundan}$$

$$P_4 = \frac{P_1}{11,2} = 0,18 \text{ MPa.}$$

Solishtirma hajmni holat tenglamasidan topamiz:

$$v_4 = \frac{R \cdot T_4}{P_4} = \frac{287 \cdot 300}{0,18 \cdot 10^6} = 0,48 \text{ m}^3/\text{kg.}$$

2. Sikldagi bajarilgan ish: $l = q_1 - q_2$,

bunda q_1 - siklga kiritilgan issiqlik;

q_2 - sikldan chiqarilgan issiqlik.

$$q_1 = R \cdot T_1 \cdot \ln \frac{P_1}{P_2} = 287 \cdot 600 \ln \frac{2}{1,35} = 67400 \text{ J/kg} = 67,4 \text{ kJ/kg}$$

$$q_2 = R \cdot T_1 \cdot \ln \frac{P_4}{P_3} = 287 \cdot 300 \cdot \ln \frac{0,18}{0,12} = 33700 \text{ J/kg} = 33,7 \text{ kJ/kg}$$

u holda

$$l = 67,4 - 33,7 = 33,7 \text{ kJ/kg.}$$

$$3. \text{ Siklning issiqlik FIK: } \eta_i = \frac{T_1 - T_2}{T_1} = \frac{600 - 300}{600} = 0,5$$

4. Siklning jarayonlarida entropiyaning o'zgarishini aniqlaymiz va Karno siklining T - S diagrammasini quramiz:

1 - 2 izoterma uchun:

$$S_2 - S_1 = R \cdot \ln \frac{P_1}{P_2} = 287 \cdot \ln \frac{2}{1,35} = 112 \text{ J/kg}^\circ\text{C} = 0,112 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

2 - 3 adiabatada uchun: $S_3 - S_2 = 0$.

3 - 4 izoterma uchun:

$$S_4 - S_3 = R \cdot \ln \frac{P_3}{P_4} = 287 \cdot \ln \frac{0,12}{0,18} = -0,112 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

4 - 1 adiabatada uchun: $S_1 - S_4 = 0$.

Siklning $T - S$ diagrammasini qurish uchun uning xarakterli nuqtalaridagi entropiyalarning qiymatlarini aniqlaymiz.


$$S_1 = c_p \cdot \ln \frac{T_1}{T_H} - R \cdot \ln \frac{P_1}{P_H} = 1,01 \cdot \ln \frac{600}{273} - 0,287 \cdot \ln \frac{2}{0,101} = -0,065 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

$S_2 - S_1 = 0,112 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$ bo'lgani uchun

$$S_2 = S_1 + 0,112 = -0,065 + 0,112 = 0,047 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}.$$

$$S_3 = S_2 = 0,047 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C};$$

$$S_4 = S_1 = -0,065 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}.$$



Rasm 2. Karno siklining $T-S$ diagrammasi

10-masala

Agar $P_1 = 0,12 \text{ MPa}$, $t = 17^\circ\text{C}$, siqish darajasi $\varepsilon = 4,5$ va siklga kiritilgan issiqlik miqdori $q_1 = 1340 \text{ kJ/kg}$ bo'lsa, issiqlikni $v = \text{const}$ bo'lganda siklga kiritiluvchi ichki yonish dvigatelining ideal sikli uchun xarakterli nuqtalaridagi holat ko'rsatkichlari, bajarilgan foydali ish, issiqlik FIK, siklning jarayonlarida entropiyaning o'zgarishi topilsin va siklning $T - S$ diagrammasi qurilsin.

Yechish.

1. Siklning xarakterli nuqtalaridagi holat ko'rsatkichlarini aniqlaymiz.


1-nuqta uchun: masalaning shartiga ko'ra: $P_1 = 0,12 \text{ MPa}$, $T_1 = 290 \text{ K}$.
Solishtirma v_1 hajmini ideal gaz holat tenglamasidan topamiz:

$$v_1 = \frac{R \cdot T_1}{P_1} = \frac{287 \cdot 290}{0,12 \cdot 10^6} = 0,69 \text{ m}^3 / \text{kg}$$

2 – nuqta uchun:

Agar $\varepsilon = \frac{v_1}{v_2}$ bo'lsa, bundan

$$v_2 = \frac{v_1}{\varepsilon} = \frac{0,69}{4,5} = 0,154 \text{ m}^3 / \text{kg}$$



Rasm 3. Siklning P - V diagrammasi.

1 - 2 adiabatik jarayon bo'lgani uchun:

$$\frac{P_1}{P_2} = \left(\frac{v_1}{v_2} \right)^k, \text{ bundan } P_2 = P_1 \cdot \varepsilon^k = 0,12 \cdot 4,5^{1,4} = 0,98 \text{ MPa}$$

T_2 ning qiymatini holat tenglamasidan foydalanib topamiz:

$$T_2 = \frac{P_2 \cdot v_2}{R} = \frac{0,98 \cdot 10^6 \cdot 0,154}{287} = 520 \text{ K}$$

3 – nuqta uchun:

q_1 keltirilgan issiqlik miqdori masala shartiga ko'ra berilgani uchun
 q_1 tenglamasidan foydalanib T_3 ni topamiz:

$$q_1 = c_v \cdot (T_3 - T_2) \Rightarrow T_3 = \frac{q_1}{c_v} + T_2$$

s_v - havoning o'zgarmas hajmidagi massaviy issiqlik sig'imi, $\text{kJ/kg}^\circ\text{C}$.

$$c_v = \frac{\mu c_v}{\mu} = \frac{20,93}{29} = 0,72 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

$$T_3 = \frac{1340}{0,72} + 520 = 2380, \text{ K.} \quad v_3 = v_2 = 0,154 \text{ m}^3 / \text{kg}$$

2 - 3 izoxorik jarayon bo'lgani uchun:

$$\frac{P_2}{P_3} = \frac{T_2}{T_3} \Rightarrow P_3 = \frac{P_2 \cdot T_3}{T_2} = \frac{0,98 \cdot 2380}{520} = 4,6 \text{ MPa}$$

4 - nuqta uchun: $v_4 = v_1 = 0,69, \text{ m}^3/\text{kg}$

3 - 4 adiabatik jarayon bo'lganligi uchun:

$$\frac{P_4}{P_3} = \left(\frac{v_3}{v_4}\right)^k \Rightarrow P_4 = P_3 \cdot \left(\frac{v_3}{v_4}\right)^k = P_3 \cdot \frac{1}{\varepsilon^k} = \frac{4,6}{4,5^{1,4}} = 0,56 \text{ MPa.}$$

4 - 1 izoxorik jarayon bo'lganligi uchun:

$$\frac{P_4}{P_1} = \frac{T_4}{T_1} \Rightarrow T_4 = \frac{P_4 \cdot T_1}{P_1} = \frac{0,56 \cdot 290}{0,12} = 1350 \text{ K}$$

2. Siklda bajarilgan foydali ish quyidagitenglikdan topiladi:

$$l = q_1 - q_2$$

bunda q_2 - sikldan chiqarilgan issiqlik,

$$q_2 = c_v \cdot (T_4 - T_1) = 0,72 \cdot (1350 - 290) = 764 \text{ kJ/kg}$$

u holda $l = q_1 - q_2 = 1340 - 764 = 576 \text{ kJ/kg.}$

3. Siklning issiqlik FIK

$$\eta_i = \frac{q_1 - q_2}{q_1} = \frac{1340 - 764}{1340} = 0,43$$

4. Siklning jarayonlarida entropiyaning o'zgarishini aniqlaymiz va T-S diagrammasini quramiz:

1 - 2 adiabata uchun $S_2 - S_1 = 0.$

2 - 3 izoxora uchun:

$$S_3 - S_2 = c_v \cdot \ln \frac{T_3}{T_2} = 0,72 \cdot \ln \frac{2380}{520} = 1,1 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

3 - 4 adiabata uchun: $S_4 - S_3 = 0$

4 - 1 izoxora uchun

$$S_1 - S_4 = c_v \cdot \ln \frac{T_1}{T_4} = 0,72 \cdot \ln \frac{290}{1350} = -1,1 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

T-S diagrammani qurish uchun siklning xarakterli nuqtalaridagi entropiyalarning qiymatlarini aniqlaymiz:

$$S_1 = c_p \cdot \ln \frac{T_1}{T_H} - R \cdot \ln \frac{P_1}{P_H} = 1,01 \cdot \ln \frac{290}{273} - 0,287 \cdot \frac{0,12}{0,101} = 0,1 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$$

$S_2 - S_1 = 0$ bo'lgani uchun $S_2 = S_1 = 0,1 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$

$S_3 - S_2 = 1,1$; $S_3 = 1,1 + S_2 = 1,1 + 0,1 = 1,2 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C},$

$S_4 - S_3 = 0$; $S_4 = S_3 = 1,2 \text{ kJ/kg}^\circ\text{C}$

5-vazifa

Porshenli ichki yonish dvigateling issiqlikdinamikasi siklidagi xarakterli nuqtalarida ishchi jism parametrlari, sikldagi bajarilgan ish, siklga kiritilgan va undan chiqarilgan issiqlik miqdorlari, siklning issiqlik FIK, sikldagi jarayonlarda entropiyaning o'zgarishi aniqlansin va masshtabda siklning $P - V$ va $T - S$ diagrammalari qurilsin.

Hisoblash uchun kerakli ma'lumotlar:

Siklning shartli belgilari:


- o'zgarmas hajmda issiqlik keltirilgan sikl-1, o'zgarmas bosimga issiqlik keltirilgan sikl-2, aralash sikl-3;
- ishchi jism - 1 kg havo;
- ishchi jismning dastlabki parametrlari P_1 va t_2 ;
- sikldagi maksimal bosim $P_{\max}$;
- o'zgarmas hajmda keltirilgan issiqlik miqdori q_{1V} , o'zgarmas bosimdagisi esa - q_{1R} ;
- siqish darajasi - ϵ ;
- bosim ortish darajasi - λ ;
- keyingi kengayish darajasi - ρ ;
- siqilish va kengayishning adiabatik ko'rsatkichi $k = 1,4$;
- havoning issiqlik sig'implari c_R yoki c_V ;
- havoning o'zgarmas gaz doimiysi $R = 287 \text{ J/kg}^\circ\text{C}$

Berilgan sikl va q_{1V} , q_{1R} , ϵ , λ , ρ va $P_{\max}$ qiymatlari shifrnig oxirgi soniga qarab 5.1- jadvalidan tanlab olinadi.

P_1 , t_1 , C_R va S_V qiymatlari esa shifrnig oxirigidan oldingi soniga qarab 5.2-jadvalidan tanlab olinadi.

Jadval 5.1

Berilgan kattaliklar	Shifrnig oxirgi soni									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
S i k l	1	2	3	1	2	3	3	2	1	3
q_{1V} , kJ/kg	-	200	-	1500	-	-	-	-	1200	500
q_{1R} , kJ/kg	-	800	1200	-	-	600	-	600	-	-
ϵ , %	6,5	15	14	7,0	16	15,1	14	15,1	7,5	14
λ	3,5	-	-	-	-	-	1,5	-	-	-
ρ	-	-	-	-	1,4	-	1,4	-	-	1,6
$P_{\max}$, MPa	-	-	-	-	-	5,8	-	-	-	-



Jadval 5.2

Berilgan kattaliklar	Shifrnig oxiridan oldingi soni									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
P_1, MPa	0,1	0,099	0,1	0,1	0,098	0,098	0,101	0,1	0,101	0,099
$t_1, ^\circ\text{C}$	17	27	15	20	27	25	5	10	7	17
$c_R, \text{kJ/kg}^\circ\text{C}$	1,0	-	-	1,01	-	-	1,01	1,0	-	1,01
$c_V, \text{kJ/kg}^\circ\text{C}$	-	0,722	0,72	-	0,72	0,72	-	-	0,72	-

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Issiqlik dinamikasi ikkinchi qonuni formulasini keltiring va ma'nosini ayting. Issiqlik hodisalari bilan boradigan makroskopik jarayonlari tahlili uchun nimaga issiqlik dinamikasi birinchi qonuniga qo'shimcha ikkinchi qonun kerak bo'ladi?
2. Siklning issiqlik FIK va sovutish koeffitsiyentining tahlilini bering.
3. Karno sikli uchun asosiy asosiy hollarni ifodalang. Karno sikli har qanday qaytar sikllar etalon ekanligani isbotlang.
3. Umumlashgan Karno sikli issiqlik FIK Karno sikli FIK teng ekanligini isbotlang.
4. qaytar jarayonlar kechadigan izolyatsiyalangan tizim uchun $\oint \frac{dq}{T} = 0$ ekanligini ko'rsating, qaytmas uchun esa $\oint \frac{dq}{T} > 0$ ekanligini. Entropiya o'zgarishi bilan S ($\delta q/T$) orasidagi bog'lanishlarni izolyatsiyalangan tizimdagi qaytmas jarayonlar uchun asoslang.
5. T-s koordinatalarda kengayish va siqish jarayonlarni tasvirlang. Ts

koordinatlarda Karno sikli, qaytmas adiabatik kengayish va siqish jarayonlar ko'rinishini keltiring.

6. Issiqlik dinamikasi ikkinchi qonunini teng salmoqli bo'lmagan tizimlar uchun ifodalang va Klauzius integrali ma'nosini ayting.
7. Entropiyaning fizik ma'nosini ifodalang.
8. Eksergiya nima? Yopiq tizimda ishchi jism eksergiyasi uchun ifodani keltirib chiqaring.
9. Issiqlik dvigatellari va issiqlik almashinish apparatlari eksergetik FIK ifodalanishini keltiring.

6. PORSHENLI KOMPRESSORLAR

11-masala

Havoning sarfi $500 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lganda so'rilayotgan paytdagi bosim $0,1 \text{ MPa}$ va siqilgandan keyingi bosim $0,4 \text{ MPa}$ bo'lsa, izotermik siquvchi ideal quvvati N va sovituvchi suvga bir soatda beriladigan issiqlik miqdori Q aniqlansin.

Yechish.

Ideal kompressorning quvvati:

$$N = \frac{L}{3600 \cdot 1000}, \text{ kVt}$$

bunda L - izotermik siqishda bajarilgan ish

$$L = P_1 \cdot V \cdot \ln \frac{P_2}{P_1} = 2,3 \cdot 0,1 \cdot 10^6 \cdot 500 \cdot \ln \frac{0,4}{0,1} = 69 \cdot 10^6 \text{ J/soat}$$

Unda ideal kompressorning quvvati

$$N = \frac{69 \cdot 10^6}{3600 \cdot 1000} = 19,1 \text{ kVt}$$

Sovituvchi suvga bir soatda beriladigan issiqlik miqdori

$$Q = L = 69 \cdot 10^6 \text{ J/soat.}$$

12-masala

Kompressor bosimi $0,1 \text{ MPa}$ va harorati 27°C bo'lgan havoni $120 \text{ m}^3/\text{soat}$ sarf miqdorida so'rib, uni siqqandan keyingi bosimi $1,2 \text{ MPa}$ bo'ladi. Siqilgan havoning harorati t_2 hajmi V_2 , kompressorning havoni siqishda bajarilgan ishi L va quvvati N aniqlansin. Hisoblashni kompressor havoni izotermik, adiabatik va politropik siqish hollari uchun bajaring. Politropik ko'rsatkichni $1,3$ ga teng deb qabul qiling.

Yechish.

a) izotermik siqish uchun:

siqilgan havoning harorati: $t_2 = t_1 = 27^\circ\text{C}$.

Siqilgan havoning hajmi:

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{P_2}{P_1} \Rightarrow V_2 = \frac{V_1 \cdot P_1}{P_2} = \frac{120 \cdot 0,1}{1,2} = 10 \text{ m}^3 / \text{soat}$$

Izotermik siqish uchun kompressorning bajargan ishi

$$L = P_1 \cdot V_1 \cdot \ln \frac{P_2}{P_1} = 2,3 \cdot 0,1 \cdot 10^6 \cdot 120 \cdot \ln \frac{1,2}{0,1} = 29,8 \cdot 10^6 \text{ J/soat.}$$

Kompressorning sarflagan quvvati:

$$N = \frac{L}{3600 \cdot 1000} = \frac{29,8 \cdot 10^6}{3600 \cdot 1000} = 8,3 \text{ kVt.}$$

b) Adiabatik siqish uchun:

Siqilgan havoning harorati

$$\frac{T_2}{T_1} = \left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} \Rightarrow T_2 = T_1 \cdot \left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} = 300 \cdot \left(\frac{1,2}{0,1} \right)^{\frac{1,4-1}{1,4}} = 600 \text{ K}$$

Adiabatik siqish uchun kompressorning ishi:

$$L = \frac{k}{k-1} \cdot P_1 \cdot V_1 \left[\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right] = \frac{1,4}{1,4-1} \cdot 0,1 \cdot 10^6 \cdot 120 \left[\left(\frac{1,2}{0,1} \right)^{\frac{1,4-1}{1,4}} - 1 \right] = 42 \cdot 10^6 \text{ J/soat}$$

Kompressorning sarflagan quvvati $N = \frac{L}{3600 \cdot 1000} = 11,6 \text{ kVt}$

v) Politropik siqish uchun:

Siqilgan havoning harorati

$$\frac{T_2}{T_1} = \left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{n-1}{n}} \Rightarrow T_2 = T_1 \cdot \left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{n-1}{n}} = 300 \left(\frac{1,2}{0,1} \right)^{\frac{1,3-1}{1,3}} = 531 \text{ K}$$

Siqilgan havoning hajmi:

$$\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{1}{n}} = \frac{V_1}{V_2} \Rightarrow V_2 = \frac{V_1}{\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{1}{n}}} = \frac{120}{\left(\frac{1,2}{0,1} \right)^{\frac{1}{1,3}}} = 17,7 \text{ J/soat}$$

Kompressorning politropik siqishdagi sarflangan ish:

$$L = \frac{n}{n-1} \cdot P_1 \cdot V_1 \cdot \left[\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{n-1}{n}} - 1 \right] = \frac{1,3}{1,3-1} \cdot 0,1 \cdot 10^6 \cdot 120 \cdot \left[\left(\frac{1,2}{0,1} \right)^{\frac{1,3-1}{1,3}} - 1 \right] = 399 \cdot 10^6 \text{ J/soat}$$

Kompressorning sarflagan quvvati:

$$N = \frac{L}{3600 \cdot 1000} = \frac{39,9 \cdot 10^6}{3600 \cdot 1000} = 11,1 \text{ kVt}$$

13-masala

Bir pog'onali kompressorning zararli hajmining miqdori 8% ni tashkil etadi. Uning havoni so'rish bosimi 0,1 MPa, haydash bosimi esa 0,7 MPa. Havoning siqilishi va kengayishi politropik jarayonda sodir bo'lib, politropik ko'rsatkichi $n=1,4$ ga teng bo'lgan holat uchun kompressorning hajmiy FIK aniqlansin. Havoni qanday bosimda haydaganda kompressorning ish unumi 0 ga teng bo'ladi?

Yechish.

Kompressorning hajmiy FIK quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$\lambda = 1 - a \cdot \left[\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{1}{n}} - 1 \right] = 1 - 0,08 \cdot \left[\left(\frac{0,7}{0,1} \right)^{\frac{1}{1,4}} - 1 \right] = 0,76$$

Kompressorning ish unumi 0 ga teng bo'lishi uchun uning hajmiy FIK 0 ga teng bo'lishi kerak, ya'ni:

$$\lambda = 1 - a \cdot \left[\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{1}{n}} - 1 \right] = 1 - 0,08 \cdot \left[\left(\frac{P_2}{0,1} \right)^{\frac{1}{n}} - 1 \right] = 0$$

Bu tenglamadan P_2 ning qiymatini aniqlasak, masalaning shartida so'ralgan bosimning qiymati kelib chiqadi:

$$P_2 = 3,82 \text{ MPa.}$$

6-vazifa.

Boshlang'ich parametrlari P_1 MPa, t_1 °C va oxirgi bosimi P_2 MPa bo'lgan kompressorning ish unumi M kg/soat ga teng. Kompressorda havoning siqilishi politropik jarayonda sodir bo'lib, uning politropik ko'rsatkichi n ga teng. Porshenning yurish oralig'ini silindrning diametriga nisbati $S/D = 1,3$. Kompressor tirsakli valining aylanish tezligi ω , ayl/min.

Kompressorni harakatlantiruvchi dvigatelining nazariy quvvati, porshenning yurish oralig'i va silindrning diametri topilsin.

P_1 , t_1 , P_2 , M , ω larning qiymatlari 6- jadvaldan olinadi.

Jadval 6

Shifring oxirgi sifri	P_1 , MPa	t_1 , °S	Shifring oxiridan oldingi sifri	P_2 , MPa	M, kg/soat	ω , ayl/min
0	0,1	16	0	0,55	300	200
1	0,1	24	1	0,60	320	250
2	0,1	13	2	0,64	360	300
3	0,1	20	3	0,68	390	320
4	0,1	26	4	0,71	370	350
5	0,1	22	5	0,73	400	270
6	0,1	25	6	0,75	420	210
7	0,1	17	7	0,85	460	330
8	0,1	15	8	0,92	490	160
9	0,1	9	9	0,90	510	180

Nazorat savoolari va topshiriqlar

1. Kompessor nima? Uning tavsiflarini keltiring. Politropik, adiabatik va izotermik siqishda kompressor ishi uchun ifodalarni keltiring.
2. $PV - TS$ – diagrammalarda ko'p bosqichli kompressorning siqish jarayonini tahlil qiling.
3. Sovutiladigan va sovutilmaydigan kompressorlarning FIK lari qanday aniqlanadi?

7. GAZLARNI OOIB CHIQISHI

14-masala

Dvigatelning silindriga yoqilg'i havo yordamida puflanadi. Buning uchun forsunkaning soplosidan havo $R_1=5$ MPa bosim va $t_1=27$ °C harorat ostiga uzatiladi. Silindr ichidagi bosim $R_2=3,5$ MPa. Havoning soplodan oqib chiqish nazariy tezligini aniqlang.

Yechish.

Bosimlar nisbatini aniqlaymiz.

$$\frac{P_2}{P_1} = \frac{3,5}{5} = 0,7$$

Bu kattalik kritik miqdordan (0,58) katta bo'lganligi uchun oqim tezligi kritik tezlikdan kam bo'ladi va quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\omega = \sqrt{2 \cdot \frac{k}{k-1} \cdot P_1 \cdot V_1 \cdot \left[1 - \left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} \right]}$$

bu tenglamadagi solishtirma hajm v_1 ni ideal gaz xolat tenglamasidan topamiz:

$$v_1 = \frac{R \cdot T_1}{P_1} = \frac{287 \cdot 300}{5 \cdot 10^6} = 0,0172 \text{ m}^3 / \text{kg}$$

u holda

$$\omega = \sqrt{2 \cdot \frac{1,4}{1,4-1} \cdot 5 \cdot 10^6 \cdot 0,0172 \cdot \left[1 - \left(\frac{3,5}{5} \right)^{\frac{1,4-1}{1,4}} \right]} = 245 \text{ m/s}$$

15-masala

Ichki diametri 10 mm li quvurdan havo katta hajmli idishdan atmosferaga oqib chiqadi. Idishdagi havoning bosimi $P_1=10$ MPa, harorati $t_1=15$ °C. Atmosfera bosimi $P_2=0,1$ MPa. Havoning kengayishini adiabatik jarayon deb qabul qilib, uning oqim tezligini va sarfini aniqlang.

Yechish:

Bosimlar nisbati. $P_2 / P_1 = 0,1/10 = 0,01$

Bu kattalik kritik miqdordan (0,528) kichik bo'lgani uchun oqim tezligi kritik tezlikka teng va

$$\omega_{kr} = 1,08 \cdot \sqrt{R \cdot T_1} = 1,08 \cdot \sqrt{287 \cdot 288} = 310 \text{ m/s.}$$

Bir sekunddagi havoning sarfi

$$M = 0,686 \cdot f \cdot \sqrt{\frac{P_1}{V_1}}$$

Bu tenglamadan havo oqib chiqayotgan quvurning ko'ndalang kesim yuzasi

$$f = \frac{\pi \cdot d^2}{4} = \frac{3,14 \cdot 0,01}{4} = 0,0000785 \text{ m}^2$$

Havoning solishtirma hajmi

$$v_1 = \frac{RT_1}{P_1} = \frac{287 \cdot 288}{10 \cdot 10^6} = 0,00827 \text{ m}^3/\text{kg}$$

U holda havoning sarfi

$$M = 0,686 \cdot 0,0000785 \cdot \sqrt{\frac{10 \cdot 10^6}{0,00827}} = 1,87 \text{ kg/s.}$$

7-vazifa

Kislorodning bosimi P_1 va harorati t_1 bo'lib, o'zgarmas holda soplodan bosimi P_2 bo'lgan muhitga oqib chiqmoqda. Soplo teshigining yuzasi f_2 . Kislorodning oqib chiqish tezligini va sarfini aniqlang.

Vazifani yechish uchun ma'lumotlar 7-jadvalda keltirilgan.

Jadval 7

Shifrnig oxirgi soni	P_1 , MPa	P_2 , MPa	Shifrnig oxiridan oldingi soni	t_1 , $^{\circ}\text{C}$	f_2 , mm^2
0	1,0	0,1	0	27	100
1	2,0	1,3	1	17	80
2	3,0	1,0	2	35	60
3	4,0	1,8	3	60	40
4	5,0	3,0	4	15	20
5	6,0	4,0	5	70	50
6	0,6	0,3	6	50	70
7	0,8	0,5	7	40	90
8	0,8	0,5	8	20	30
9	0,4	0,1	9	10	20

Nazorat savoolari va topshiriqlar

1. Ochiq termodinamik tizimlari aniqlanishini ifodalang va amaliyotdan misollar keltiring.
2. Oqim uchun issiqlik dinamikasi birinchi qonuni tenglamasini keltirib chiqaring va uning har xil yozilishlarini keltirig.
3. Texnikaviy va keltirilgan ish nima? Keltirilgan ishning geometrik interpretatsiyasini bering va bu ishning politropik va adiabatik jarayonlar uchun qanday aniqlanishini ko'rsating.
4. Qisqa kanallarda ishchi jism oqishida uning massaviy sarfi tezligi uchun ifodani keltirib chiqaring. Bu tenglamalar tahlilini bajaring.
5. Bosimlar kritik nisbati, kritik tezlik, ishchi jismning maksimal massaviy sarfi nimani bildiradi? Torayuvchi sopladan oqayotgan ishchi jismning kritik tezligi va maksimal sarfi uchun ifodalarni yozing.
6. Kritik tezlik chiqish joyidagi tovush tezligiga teng ekanligini ko'rsating. Tezlik tovush tezligidan past bo'lganda kanal torayuvchi bo'lishi kerakligini, tezlik tovush tezligidan yuqori bo'lganda kanal

kengayuvchi bo'lishligini isbotlang.

7. Adibatik to'xtalish harorati nimani bildiradi?
8. Oqimning haqiqiy tezligi qanday aniqlanadi? $h-s$ – diagramma yordamida adibatik qaytar va qaytmas oqimlar jarayonini tahlil qiling. Energiya yo'qotish koeffitsiyenti nimani bildiradi va uning qiymati qanday aniqlanadi?
9. $r_2 / p_1 < \beta_{kr}$ nisbatda bug' oqimi uchun aniq masalani $h-s$ – diagramma yordamida yeching. Kanalning eng tor va chiqish kesimida oqim jarayonini hisoblash tavsiflarini aniqlang.
10. Drossellanish va adibatik drossellanish koeffitsiyenti aniqlanishini keltiring. Joul-Tomson samarasi nimani bildiradi? Inversiya egri chizig'ini tahlil qiling. Texnikada drossellanish ishlatilishiga misollar keltiring.

8. SUV BUG'I

Quyidagi masalalarni yechishda $h-S$ diagrammasidan foydalaning.

16-masala

quvurdan o'tayotgan bug'ning bosimi $P_1=1,2$ MPa va harorati $t=260$ °C. Bug'ning sarfi $M = 350$ kg/s, tezligi $\omega = 50$ m/s.
Bug' o'tkazayotgan quvurning diametrini aniqlang.

Yechish.

Bug'ning sarf bo'lishi quyidagi tenglamadan aniqlanadi.

$$M = f \cdot \omega \cdot \rho = \frac{\pi \cdot d^2}{4} \cdot \omega \cdot \frac{1}{v}$$

bu yerda; f - trubaning ko'ndalang kesim yuzasi, m^2 ;
 d - trubaning diametri, m ;
 v - bug'ning solishtirma hajmi, m^3/kg ;
 ρ - bug'ning zichligi, kg/m^3 .

Yuqoridagi tenglamadan

$$d = \sqrt{\frac{4Mv}{\pi\omega}} = \sqrt{\frac{4 \cdot 350 \cdot 0,2}{3600 \cdot 3,14 \cdot 50}} = 0,022m = 22mm$$

Bug'ning solishtirma hajmi $h-S$ diagrammasidan aniqlanadi, $v=0,2$ m^3/kg .

17-masala

Trubinadan kondensatorga oqib htayotgan bug'ning bosimi $P = 0,01$ MPa, quruqlik darajasi $x = 0,83$, kondensatordan chiqayotgan kondensatning harorati $t = 35^{\circ}\text{C}$. Bug'ni sovitish uchun ishlatilayotgan suvning harorati $\Delta t = 15^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilishi uchun kondensatorga qancha miqdorda suv berish kerak?

Yechish.

1 kg bug' kondensatsiya bo'lishi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlik

$$q_b = h_1 - h_2 = 2180 - 35 = 2145 \text{ kJ/kg}$$

bu yerda; h_1, h_2 - bug'ning avvalgi va keyingi holatlarining entalpiyalari, h-S diagrammadan aniqlaniladi.

$$h_1 = 2180 \text{ kJ/kg}; h_2 = 35 \text{ kJ/kg}.$$

Suvni isitish uchun zarur bo'lgan issiqlik

$$Q_c = M C_R (t_2 - t_1) = M C_R \Delta t$$

bu yerda, M -massasi 1 kg bug'ni sovitish uchun kerak bo'lgan suv miqdori, kg.

C_R - suvning massaviy izobarik issiqlik sig'imi, $C_R = 4,18 \text{ kJ/kg}^{\circ}\text{C}$.

t_1, t_2 - suvning kondensatorga kirish va chiqishdagi haroratlari, $^{\circ}\text{C}$.

Kondensatorga energetik balans shartini (bug'dan ajralib chiqqan issiqlikning hammasi suvni isitish uchun sarflanadi) xisobga olgan holda

$$q_b = Q_c = M C_R \Delta t \quad \text{va}$$

$$M = \frac{q_b}{C_R \Delta t} = \frac{2145}{4,18 \cdot 15} = 34,2 \text{ kg}.$$

18-masala

Harorati $t_1 = 400^{\circ}\text{C}$ bo'lgan 1 kg suv bug'i tashqi muhit bilan issiqlik almashmagan holda kengaytirilgan. Shunda uning bosimi $P_1 = 9$ MPa dan $P_2 = 4$ MPa gacha kamaygan.

Bug'ning oxirgi xolat parametrlarini, entalpiyasining o'zgarishini va kengaytirishdagi bajargan ishini aniqlang.

Yechish.

h-S diagrammasidagi $t_1 = 400^{\circ}\text{C}$ izoterma chizig'i bilan $P_1 = 9$ MPa izobara chiziqlarini kesishgan nuqtasini aniqlaymiz. Bu nuqtani "1" deb belgilaymiz. Shu nuqtadan $P_2 = 4$ MPa ga teng izobara chizig'i bilan kesishish nuqtasini "2" deb belgilaymiz. Diagrammadan ko'rinadiki 1 va 2 nuqtalar Yuqorigi chegaraviy chiziqdan Yuqorida joylashgan bo'lib, bu nuqtalarga mos keluvchi bug'ning holati qizdirilgan bug' ekan.

1) Diagrammadan: $h_1 = 3125 \text{ kJ/kg}$, $t_1 = 400^{\circ}\text{C}$, $v_1 = 0,03 \text{ m}^3/\text{kg}$,

$$h_2 = 2950 \text{ J/kg}, t_2 = 290^\circ\text{S}, v_2 = 0,05 \text{ kJ/kg}.$$

2) Entalpiyasining o'zgarishi:

$$h_1 - h_2 = 3125 - 2950 = 175 \text{ kJ/kg}.$$

3) Kengayishdagi ish:

$$l = u_1 - u_2,$$

bu tenglamada u_1 , u_2 - bug'ning boshlang'ich va keyingi holat ichki energiyasi:

$$u_1 = h_1 + p_1 \cdot v_1 = 3125 + \frac{9 \cdot 10^6 \cdot 0,03}{1000} = 3395 \text{ kJ/kg}$$

$$u_2 = h_2 + p_2 \cdot v_2 = 2950 + \frac{4 \cdot 10^6 \cdot 0,05}{1000} = 3150 \text{ kJ/kg}.$$

Demak, $l = 3375 - 3150 = 245 \text{ kJ/kg}$

8-vazifa

Bosimi r_1 va harorati t_1 bo'lgan 1 kg suv bug'iga izotermik jarayonda q miqdorida issiqlik beriladi. Bug'ning keyingi holati, holat ko'rsatkichlarini, kengayishdagi bajargan ishini va ichki energiyasining o'zgarishini aniqlang.

$h - s$ diagrammasida $s = \text{const}$ - bu to'g'ri vertikal chiziq.

Masalani $h - s$ diagramma yordamida yeching.

Masalani yechish uchun ma'lumotlar 8 jadvalda keltirilgan.

Jadval 8.

Shiftning oxirgi soni	P_1 , MPa	t_1 , $^\circ\text{C}$	Shiftning oxiridan oldingi soni	q , kJ/kg
0	20	400	0	570
1	14	380	1	460
2	16	460	2	630
3	18	330	3	410
4	12	630	4	1280
5	10	360	5	740
6	9	490	6	920
7	8	550	7	800
8	6	370	8	490
9	5	300	9	550

9. SUV BUG'IKUCH OURILMALARINING SIKLLARI

19-masala


Renkin siklida ishlayotgan bug' mashinasiga kirayotgan bug'ning bosimi $P_1 = 1,5$ MPa va harorati $t_1 = 300$ °C, turbinadan chiqayotgan bug'ning bosimi $P_2 = 0,01$ MPa. Bug'ning sarfi $M = 940$ kg/soat. qurilmaning foydali ish koeffitsiyenti va quvvatini aniqlang.

Yechish.

qurilmaning foydali ish koeffitsiyenti:

$$\eta_i = \frac{h_1 - h_2}{h_3 - h_2'}$$

bu tenglamada h_1 va h_2 bug'ning kengayishidan avvalgi va keyingi entalpiyalari, kJ/kg; h'_2 - bosimi P_2 ga teng bo'lgan kondensatning entalpiyasi, kJ/kg ($h'_2 = c_p \cdot t_k$, $s_r = 4,19$ kJ/kg 0C , t_k - kondensat harorati).



Rasm 5. h-S diagrammasidan foydalanish sxemasi

Bug'ning h_1 , h_2 va h'_2 entalpiyalari va t_k lar $h - s$ diagramasidan aniqlanadi (rasm 5).

$$h_1 = 3040 \text{ kJ/kg}, h_2 = 2190 \text{ kJ/kg}, h'_2 = 47 \text{ kJ/kg}.$$

$$\text{U holda} \quad \eta_i = \frac{3040 - 2190}{3040 - 47} = 0,3$$

Bug' qurilmasining quvvati

$$N = M \cdot (h_2 - h_1) = \frac{940}{3600} \cdot (3040 - 2190) = 222 \text{ kWt}$$

bu tenglamada M - bug'ning sarfi, kg/sek.

20-masala

Uchta bug' qurilmasi Renkin siklida ishlamoqda. Uchta siklga ham boshlang'ich bosim $P_1=2$ MPa, keyingi bosim $P_2=0,02$ MPa.

Birinchi siklida ishchi jism - quruqlik darajasi $x=0,9$ bo'lgan nam bug'; ikkinchi siklida - quruq to'yingan bug' va uchinchi siklida xarorati $t_1=300$ °C bo'lgan qizdirilgan bug'.

Sikllarning foydali ish koeffitsiyentlarini aniqlang va bir-biri bilan solishtiring.

Yechish.

Uchala sikl uchun ham foydali ish koeffitsiyentlari quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\eta_i = \frac{h_1 - h_2}{h_1 - h_2'}$$

h-S diagrammasidan:

a) birinchi sikl uchun

$$h_1=2620 \text{ kJ/kg}, h_2=1960 \text{ kJ/kg}, h_2' = 60 \text{ kJ/kg}$$

b) ikkinchi sikl uchun

$$h_1=2800 \text{ kJ/kg}, h_2=2090 \text{ kJ/kg}, h_2' = 60 \text{ kJ/kg}$$

v) uchunchi sikl uchun

$$h_1=3020 \text{ kJ/kg}, h_2=2230 \text{ kJ/kg}, h_2' = 60 \text{ kJ/kg}$$

U holda

$$\text{a) } \eta_i = \frac{2620 - 1960}{2620 - 60} = 0,257$$

$$\text{b) } \eta_i = \frac{2800 - 2090}{2800 - 60} = 0,259$$

$$\text{v) } \eta_i = \frac{3020 - 2230}{3020 - 60} = 0,267$$

21-masala

Renkin siklida ishlayotgan bug' qurilmasiga qizdirilgan bug' kiritilgan. Bosimi $P_1 = 9$ MPa va harorati $t_1 = 450$ °C bo'lgan bug' turbinada bosimi $P' = 2,9$ MPa gacha kengaygandan keyin uning bosimi o'zgartirilmay $t' = 350$ °C gacha qayta qizdiriladi va yana turbinada bosimi $P_2 = 0,004$ MPa gacha kengayadi.

Siklning foydali ish ko'effitsiyentini aniqlang.

Yechish

Sikldagi bug'ning kengayishi va qayta qizdirilishi 6 - rasmda ifodalanagan. Bu rasmda 1 - 2 bug'ning dastlabki kengayishi, 2 - 3 bug'ni qayta qizdirish, 3 - 4 bug'ning keyingi kengayishi.

Bug' qayta qizdiriluvchi Renkin siklining foydali ish ko'effitsiyenti quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\eta_i = \frac{(h_1 - h_2) + (h_3 - h_4)}{(h_1 - h_k) + (h_3 - h_2)}$$

bu yerda h_1, h_2, h_3, h_4 - bug'ning 1,2,3 va 4 - holatlardagi (rasm 6) entalpiyasi, kJ/kg;

h_k - kondensatning entalpiyasi, kJ/kg ($h_k = c_r t_k$).

h - S diagrammasidan:

$$h_1 = 3260 \text{ kJ/kg,}$$

$$h_2 = 2960 \text{ kJ/kg,}$$

$$h_3 = 3100 \text{ kJ/kg,}$$

$$h_4 = 2030 \text{ kJ/kg,}$$

$$h_k = 121 \text{ kJ/kg.}$$

$$\text{u holda} \quad \eta_i = \frac{(3260 - 2960) + (3100 - 2030)}{(3260 - 121) + (3100 - 2960)} = 0,42$$

Masalani yechish uchun ma'lumotlar 9-jadvalda keltirilgan.

Jadval 9

Shifrnig oxirgi soni	P_1 , MPa	X_1	Shifrnig oxirgidan oldingi soni	P_2 , MPa	X_2	Δt , °C
0	6	0,87	0	0,12	0,98	110
1	4,7	0,85	1	0,15	0,99	120
2	6,9	0,91	2	0,09	0,95	100
3	3,1	0,94	3	0,08	0,97	90
4	4,3	0,89	4	0,14	0,96	130
5	2,5	0,9	5	0,05	0,98	185
6	5,7	0,92	6	0,07	0,95	160
7	3,5	0,88	7	0,035	0,94	105
8	4,5	0,86	8	0,02	0,96	140
9	5,0	0,89	9	0,025	0,98	115

Nazorat savoolari va topshiriqlar

1. Bug' kuch qurilmalari sxemalarini tasvirlang va ularning bir biridan farq qiluvchi xususiyatlarini ko'rsating.
2. Bug' kuch qurilmasi siklining FIK ni oshirish yo'llarini ko'rsating. Siklning TS – koordinatalardagi tasvirlanishidan foydalanib, sikl tahlilini bajaring

II - bo'lim. ISSIQLIK ALMASHINUVI

1. KONVEKTIV ISSIQLIK ALMASHINUVI

1-masala.

Eni $\nu = 1,0$ m va uzunligi $l = 1,2$ m bo'lgan silliq plita shamol oqimiga qo'yilgan. Shamolning tezligi $\omega = 6$ m/s, harorati $t_f = 20$ °C. Plitaning harorati $t_\omega = 80$ °C.

Issiqlik berish koeffitsiyenti α bilan plitadan havoga o'tayotgan issiqlik miqdori Q ni aniqlang.

Yechish

Masalaning shartidan aniq bo'lishicha bu yerda majburiy konveksiya sodir bo'lmoqda. Bunda Reynolds kriteriyasini topish kerak bo'ladi:

$$Re_{f,l} = \frac{\omega \cdot l}{\nu_f} = \frac{6 \cdot 1,2}{15,06 \cdot 10^{-6}} = 4,78 \cdot 10^5$$

bu yerda ν_f - havoning quyushqoqligi, m²/sek (ilova, 12 jadval)

$Re \geq 4 \cdot 10^4$ bo'lgan holda plita atrofiga turbulent oqim kuzatiladi va bu hodisa uchun Nuselt kriteriyasi $Nu_{f,l} = 0,37 \cdot Re_{f,l}^{0,8} \cdot Pr_f^{0,43}$ bu tenglamada Rr_f - Prandtl kriteriyasi (ilova, 12 jadval).

$$Nu_{f,l} = 0,037 \cdot (4,78 \cdot 10^5)^{0,8} \cdot 0,7^{0,43} = 1,12 \cdot 10^3$$

O'z navbatida
$$Nu_{f,l} = \frac{\alpha \cdot l}{\lambda_f}$$

bu yerda λ_f - havoning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, vt/m °C (ilova, 12 jadval) va bu tenglamadan

Temirbeton	$\lambda_{t.b.} = 1,98 \text{ Vt/m}\cdot^\circ\text{C}$
Pergamin	$\lambda_p = 0,17 \text{ Vt/m}\cdot^\circ\text{C}$
Keramzitobeton	$\lambda_{k.b.} = 0,2 \text{ Vt/m}\cdot^\circ\text{C}$
Ruberoid	$\lambda_r = 0,17 \text{ Vt/m}\cdot^\circ\text{C}$
Bitum	$\lambda_{b.m.} = 0,27 \text{ Vt/m}\cdot^\circ\text{C}$
Beton	$\lambda_b = 1,81 \text{ Vt/m}\cdot^\circ\text{C}$

R_H - devorning tashqi yuzasining issiqlik berishga termik qarshiligi (tashqi devorlar va cherdaksiz tomalar uchun $R_n=0,043 \text{ m}^2\cdot^\circ\text{C/Vt}$, cherdakli

qoplama va isitilmaydigan yerto'lalar ustidagi qoplamalar uchun $R_n=0,086\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$) [5, 273 bet, 9,10,11 ilova].

Yuqoridagilardan $R_v=0,115\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$ va $R_n=0,043\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$.

$$R_{0\text{m.o.}} = 0,115 + \frac{0,02}{0,76} + \frac{0,51}{0,76} + 0,043 = 0,853\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$$

Yog'och romlarga o'rnatilgan derazalar va eshiklarning issiqlik o'tkazishga qarshiligi R_0 3-jadval dan olinadi.

Jadval 3

Konstruksiya	Oynalar orasidagi masofa, mm	R_0 , $\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$
Bir qatlam oynali	-	0,17
Ikki qatlam oynali	50...55	0,34
Alohida romlarda ikki qatlam oynali	100...110	0,38
Bir qatlamli darvozalar va tashqi eshiklar	-	0,215
Ikki qatlamli darvozalar va tashqi eshiklar	-	0,43
Bir qatlamli ichki eshiklar	-	0,34

Demak, $R_0=0,34\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$

Cherdaksiz tomning shifti qoplamasi uchun:

($R_v=0,115\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{S/Vt}$, $R_n=0,043\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$),

$$R_{\text{kon}} = 0,115 + \frac{0,05}{1,98} + \frac{0,0015}{0,17} + \frac{0,014}{0,2} + \frac{0,006}{0,17} + \frac{0,009}{0,17} + 0,043 = 0,309$$

$R_{\text{kop}}=0,309\text{m}^2\cdot^{\circ}\text{C/Vt}$.

Pol maydonini tashqi devorlarga parallel qilib ikki metrlik zonalarga bo'lib chiqsak, 2 ta 2 metrlik va 1 ta kengligi 1,62 metrlik zonalar hosil qilamiz.

Zonalar maydoni $g'_I = g'_{II} = 10,7 \cdot 2 = 21,4\text{m}^2$; $g'_{III}=17,3\text{m}^2$

Har bir zonaning issiqlik o'tkazishga qarshiligini isitilmaydigan pollarnikiga kabi aniqlaymiz:

$\lambda_8 > 1,16\text{Vt/m}\cdot^{\circ}\text{C}$; $R_{n(I)} = 2,15$; $R_{n(II)} = 4,31$; $R_{n(III)} = 8,6$.

Uchta deraza o'rning umumiy yuzasi: $F_{\text{der}} = 3 \cdot 1,7 \cdot 1,9 = 9,69\text{m}^2$.

Tashqi devorning yuzasini (deraza o'rning umumiy yuzasisiz) quyidagicha topiladi: $F_{\text{tash.dev.}} = 10,7 \cdot 4 - 9,69 = 33,11\text{m}^2$.

Potolok yuzasi

$$F_{\text{pot}} = \frac{5,62}{\cos 12^{\circ}} \cdot 10,7 = 61,53\text{m}^2$$

Alohida olingan to'siqlardan yo'qalayotgan asosiy issiqlik yo'qolishlarini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Phi = \frac{F}{R_0} \cdot (t_B - t_H) \cdot n$$

bunda F- to'siq yuzasi, m²;

t_B, t_H - ichki va tashqi havoni hisobiy haroratlari, °C; R₀ – issiqlik uzatilishiga umumiy qarshilik, m²·°C/Vt;

n - to'siq tashqi yuzasining tashqi o'rab turgan havoga nisbatan joylashishini hisobga oluvchi koeffitsiyent bo'lib, jadval 4 dan olamiz:

Jadval 4

To'siq turlari	n
Tashqi devorlar, chordaksiz shift qoplamalari, siyrak panjaralangan pulat listli, cherepitsali yoki asbotsement qoplamali cherdakli shift qoplamalari, tuproqqa qo'yilgan pollar	1
Tashqi havo bilan o'ralgan sovuq yerto'la usti qoplamasi, o'ramli materiallardan tayyorlangan tushama qoplamli cherdakli shift	0,9
Yorug' uchun tirqishli, isitilmagan yerto'la usti qoplamasi	0,75
Tashqi muhit bilan bog'lanmagan va isitilgan xonani isitilmagan xonadan ajratib turuvchi to'siq devor	0,4

Tashqi devor orqali yo'qalayotgan issiqlik oqimi:

$$\Phi_T = \frac{33,1}{0,853} \cdot [18 - (-18)] \cdot 1 = 1397 \text{ Vt},$$

derazalar orqali yo'qalayotgan issiqlik oqimi:

$$\Phi_O = \frac{9,69}{0,47} \cdot [18 - (-18)] \cdot 1 = 742 \text{ Vt},$$

qoplamalar orqali yo'qalayotgan issiqlik oqimi:

$$\Phi_K = \frac{61,53}{0,309} \cdot [18 - (-18)] \cdot 1 = 7168 \text{ Vt},$$

pol orqali yo'qalayotgan issiqlik oqimi:

$$\Phi_n = \left(\frac{21,4}{2,15} + \frac{21,4}{4,3} + \frac{17,3}{8,6} \right) \cdot [18 - (-18)] \cdot 1 = 610 \text{ Vt},$$

Shimoliy-g'arb tomonga qaragan tashqi devor va derazalar orqali qo'shimcha yo'qalayotgan issiqlik oqimi 10% ni tashkil etadi.

Tashqi havoning infilg'ratsiyalanishi natijasida yo'qalayotgan qo'shimcha issiqlik oqimi:

$$F_{inf} = 0,3 \cdot (1397 + 742 + 7168 + 610) = 2975 \text{ Vt}$$

Shunday qilib, to'siqlardan yo'qalayotgan umumiy issiqlik oqimi:

$$F_{to'siq} = (1397 + 742) \cdot 1,1 + 7168 + 610 + 2975 = 13105 \text{ Vt}$$


1-vazifa

Xo'jalik tuzatish ustaxonasini bo'limlarining tashqi devorlari orqali yo'qotiladigan issiqlikni aniqlang? Ustaxonaning reja va qirqimlari rasm 2 da ko'rsatilgan.

Tashqi va ichki devor qalinliklari va materiallari jadval 5 dan qabul qilinadi. Tashqi devor uchun suvoq fa=at ichki tomondan, ichki devorda esa ikki tomonlama qilingan. Hisoblanadigan bo'lim ichki havo harorati t_u , tashqi havo harorati t_b , xonalar haroratlari farqlari t_F , xona rejasi ko'rsatkichi jadval 5 dan olinadi. Hisoblanadigan xonalarning oynalari qo'shramkali bo'lib, oyna o'lchami $1,5 \times 2,0$ metr, Derazalar soni esa berilgan xona rejasidan olinadi. Eshiklar bittalik bo'lib, o'lchamlari $1,8 \times 2,2$ metr. Pol va tom konstruksiyalari rasm 2 da keltirilgan.

Jadval 5

Shifrnig oxiridan oldingi soni	t_b , °C	δ_{TD} , mm	δ_{ID} , mm	t_u , °C	Shifrnig oxirgi soni	t_F , °C	Suvoq qalinligi $\delta_{s=}$, mm	Devor materiali	Berilgan xona
0	20	250	200	- 25	0	10	20	TB	g
1	18	510	200	- 35	1	11	10	Xg'	z
2	22	400	300	- 27	2	9	10	Sg'	a
3	24	250	200	- 18	3	8	20	BGr	d
4	19	200	180	- 30	4	22	15	YoD	i
5	17	270	220	- 29	5	14	10	Xg'	b
6	20	500	300	- 22	6	12	15	Sg'	e
7	16	350	270	- 33	7	18	20	ShB	k
8	23	300	220	- 24	8	20	15	TB	v
9	21	380	250	- 23	9	21	10	YoD	j



Rasm 1. Vazifa 1 uchun berilgan bino rejasi

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Binoning issiqlik rejimi nima va uning o'rchov birliklari qiymatlari qaysi omillardan aniqlanadi?
2. Binoni o'rab turuvchi to'sinlar yuzalainining issiqlik muvozanat tenglamasini yozingva tashkil etuvchilarining tahlilini keltiring.
3. Qurilish materiallarining qaysi asosiy issiqlik-fizik tavsiflarini bilasiz?
4. Tashqi havo infiltratsiyasi nima?
5. Bino ichi mikroiklimi nima?
6. Binodan yo'qalayotgan issiqlik oqimi qanday topiladi?.
7. Bino to'sinlarining issiqlik yo'qolishiga qarshiligi nima va qanday aniqlanadi?
8. Qo'shimcha yo'qalayotgan issiqlik miqdori nimani hisobga oladi?

2. ISITISH ASBOBINI TANLASH

2-masala

Masala 1 ning ko'rsatkichlari bo'yicha berilgan bino xonasi uchun isitish asbobi yuzasini aniqlang va suvli isitish sistemasi (tizimi) uchun isitkich asboblari tanlang. Isitkich asboblari uchun qovurg'ali cho'yan quvurlar qabul qiling. Uzatish magistralidagi issiqlik tashuvchi suvning harorati 95 °C, qaytish magistralidagi suvning harorati 70 °C bo'lsin.

Yechish

Avvalombor isitish tizimining uzatish quvurlaridan ajralayotgan issiqlik oqimini aniqlaymiz. Issiq suv uzatish quvurlari deraza ostidan o'tganligi sababli uzatish quvuri isitish asbobi bilan birga isitiladigan xonaning ichida joylashgan deb hisoblanadi. Shuning uchun uzatish quvurlari va hamda isitish asboblarini bir biriga ulagichlar uchun koeffitsiyent $\eta = 1$ ga, pol ustidan o'tuvchi qaytish quvuri uchun esa $\eta = 0,75$ ga teng [5, 84 bet, 5.2 formula]. Uzatish va qaytish magistrali o'tkazish quvurlarining diametri 32 mm va uzunligi 10,7 m bo'lib, ularning yuzasi maydoni

$$F_{o,q} = F_{ss} = 3,14 \cdot 0,032 \cdot 10,7 = 1,08 \text{ m}^2$$

Isitish asboblari va uzatish quvurlarini ulagichlar soni oltita (har bir asbobga ikkitadan) bo'lib, ularning diametrlarini 20 mm va uzunligini 0,8 m qabul qilib, yuzasi maydonini topamiz:

$$F_{ul} = 6 \cdot 3,14 \cdot 0,02 \cdot 0,8 = 0,3 \text{ m}^2.$$

Isitish asbobi ichidagi suvning o'rtacha harorati va xona havosi harorati farqlari

$$[(95 + 70) / 2] - 18 = 64,5^{\circ}\text{C}$$

ekanligidan uzatish quvurining issiqlik uzatish koeffitsiyentini [5, 85 bet, jadval 5.3] dan topamiz:

$$K = 14 \text{ Vt/m}^2 \cdot ^{\circ}\text{C}.$$

Uzatish magistrali quvurlari yuzasidan ajralayotgan issiqlik oqimi quyidagicha topiladi:

$$F_{u=} = F_{uv} \cdot K_{uv} \cdot (t_{uv} - t_{havo}) \cdot \eta = 1,08 \cdot 14 \cdot (95 - 18) = 1164 \text{ Vt}$$

qaytish magistrali quvurlari uchun

$$F_m = 1,08 \cdot 14 \cdot (70 - 18) \cdot 0,75 = 590 \text{ Vt}$$

quvurlarni isitish asboblari ulagichlar uchun

$$F_{ulagich} = 0,3 \cdot 14 \cdot ((90 + 70 / 2) - 18) = 271 \text{ Vt}$$

Barcha uzatish quvurlaridan ajralayotgan issiqlik oqimlari yig'indisi:

$$F_{\Sigma uv} = 1164 + 590 + 271 = 2025 \text{ Vt}$$

Isitish asbobi devorga erkin o'rnatilgan deb qabul qilamiz va $\beta_1 = 1$, quvur ochiq holda joylashganligidan $\beta_2 = 1$ ga teng [5, 84 bet, 5.1 formula].

Har bir deraza romi tagiga uchtdan qovurg'ali cho'yan quvur - isitish asbobi o'rnatamiz deb qabul qilamiz. Isitish asbobi uchun jadval 6 dan issiqlik uzatish koeffitsiyentini qabul qilamiz:

$$K = 4,7 \text{ Vt/m}^2 \cdot ^{\circ}\text{C}.$$

Isitish asbobining talab qilinadigan issiqlik berish yuzasi maydoni taxminan quyidagicha topiladi:

$$F_{uc.A} = \frac{(\Phi_{DCLK} - \Phi_{KTB}) \cdot \beta_1 \cdot \beta_2}{K_{uc.A} \cdot (t_{uc.A} - t_{XIBO})} = \frac{(13105 - 2025) \cdot 1 \cdot 1}{4,7 \cdot \left(\frac{95 + 70}{2} - 18 \right)} = 36,5 \text{ m}^2$$

Shunday qilib, qabul qilamiz: isitish asbobi - cho'yan qovurg'ali quvur, uning uzunligi 2000 mm, isitish yuzasi maydoni 4 m² (jadval 7). quvurlar soni

$$n = 36,5 : 4 \approx 9 \text{ ta.}$$

Xonaning har bir derazasi ostiga uchtdan qovurg'ali quvurdan iborat isitish asboblari o'rnatiladi.

Ochiq joylashtirilgan isitish asboblarning issiqlik uzatish ko'effitsiyenti

Jadval 6

Isitish asboblari	Issiqlik uzatish ko'effitsiyenti $K_{asb} \cdot Vt/m^2 \cdot ^\circ C$					
	Isitish asbobidagi suvning o'rtacha harorati bilan bino xonasi ichidagi havo haroratlari farqi, $^\circ C$			Isitish asbobidagi suv bug'ining ortiqcha bosimi, kPa		
	60...70	70...80	>80	<68,7	98,1	>98.1
Cho'yon radiatorlar:						
M-140	9,6	9,9	10,0	10,4	-	-
M-140-AO	9,2	9,5	9,6	10,0	-	-
RD-90	10,1	10,3	10,5	-	-	-
RD-26	9,3	9,7	10,1	-	-	-
V85 A	11,6	11,7	12,0	-	-	-
Aylanma qovurg'ali cho'yan quvurlar						
bitta quvurli	5,8	5,8	5,8	7,0	7,5	7,8
ikki quvurli (ustma-ust)	5,3	5,3	5,3	5,8	6,3	6,5
uchta quvurli (ustma-ust)	4,7	4,7	4,7	5,3	5,6	5,8
quyidagidiametrli bitta po'lat quvur, mm.						
≤ 32	14,0	14,6	14,6	15,2	16,2	17,0
32...108	12,2	12,8	13,4	14,0	14,9	15,6
133...159	12,2	12,2	12,2	13,4	14,3	15,0
quyidagidiametrli ustma ust joylashgan bir necha po'lat quvurlar, mm						
≤ 32	12,8	12,8	13,4	14,6	15,6	16,3
> 32	10,5	10,5	10,5	12,8	13,8	14,4

Qovurg'ali cho'yan quvurlarning asosiy ko'rsatkichlari Jadval 7

Uzunligi, m	Bitta quvurning isitish yuzasi maydoni, m^2	Bitta quvur ko'rsatkichlar uchun	
		massa, kg	sig'imi, l
1000	2	37,6	3,85
1500	3	56,4	5,80
2000	4	75,2	7,70

Cho'yan radiatorlarning asosiy ko'rsatkichlari

Jadval 8

Model	Seksiyalar to'liq balandligi o'lchamlari, chuqurligi mm			Seksiya isitish yuzasi maydoni, m ²	Bitta seksiyaning o'rtacha massasi, kg
M -140	582	140	96	0,254	7,70
M - 140 - AO	582	140	96	0,299	7,80
RD - 90	582	90	96	0,203	6,95
RD - 26	582	90	100	0,205	6,87
V - 85A	593	87	88	0,176	5,45


2-vazifa

Birinchi vazifadan kelib chiqib, xo'jalik ustaxonasining bo'limlari uchun isitish asbobi yuzasini aniqlang va isitish asbobini tanlang. Isitish asboblari derazalar ostiga joylashtiring, ularning joylashish o'rni derazalar soniga teng. Isitish tizimi uchun uzatish magistrali quvuridagi harorat t_{UZ} , qaytish magistrali uchun - t_v , uzatish quvuri diametri d_1 , vertikal qismi uzunligi l_1 , gorizontal qismi uzunligi l_2 , qaytish magistrali quvuri diametri d_2 , uzunligi l_3 , ulagich quvuri diametri d_3 , ulagich uzunligi l_4 . Isitish asbobining devorga joylashishi usullari rasm 1 da keltirilgan, magistrallarning joylashish usullari - "O" ochiq, -"Yo" yopiq.

Hisoblash uchun ma'lumotlar 9-jadval da keltirilgan.

Jadval 9

Shifrnin oxiridan oldingi soni	t_{UZ} , °C	d_1 , mm	d_2 , mm	d_3 , mm	o/yo	Shifrnin oxirgi soni	t , °C	l_4 , m	variant
0	95	32	30	20	yo	0	65	0,6	A
1	105	40	32	15	yo	1	70	0,5	B
2	110	35	35	20	o	2	75	0,7	V
3	90	30	32	15	o	3	75	0,4	G
4	115	42	40	20	yo	4	80	0,5	G
5	105	40	35	15	yo	5	70	0,6	V
6	100	45	30	20	o	6	65	0,4	B
7	110	42	32	15	o	7	75	0,7	A
8	105	32	40	20	yo	8	70	0,5	B
9	95	40	32	15	yo	9	60	0,7	V



Rasm-2. Isitish asboblari o'rnatish usullari:

a)-asbob devorga erkin o'rnatilgan; b) asbob tekis devorga yuqori to'siqli joylashtirilgan; v) asbob devorga chuqirligi 130 mm dan kam bo'lmagan uyali qilib joylashtirilgan; g) asbob tekis devorga yuqori va pastki teshikli to'siqli va old tomonidan yog'och eshikli to'siqli shaklida joylashtirilgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qishloq xo'jalik inshootlarini isitish tizimlari turlarini sanab bering.
2. Suvli ismtish tizimini gapirib bering.
3. Havo bilan isitish tizimi sxemasini keltiring.
4. Isitish asboblari tanlashni tushuntirib bering.
5. Markazlashgan isitish tizimi afzalliklari nimada?
6. Suvli isitish tizimi isitish asboblari hisoblash va tanlash qanday amalga oshiriladi?

3. ISITISH TIZIMI OUVURLARI XISOBI


3-masala

Haroratlari 95...70 oC bo'lgan issiqlik tashuvchili issiqliktarmog'iga ulangan suvli isitish tizimi (3-rasm) quvurlarining diametrlarini hisoblang. Isitish asboblari sifatida M-140-AO rusumli radiatorlar qabul qiling, radiatorlar har biri 10 seksiyali qilib 8 batareyaga joylashtirilgan. Har bir isitish asbobining issiqlik berishi (V_t) 6-rasmda ko'rsatilgan. Uzatish magistrali deraza ostidan, qaytish magistrali esa polning ustidan o'tadi.

Yechish

Yechishni issiqlik tashuvchi(suv)ning VIII isitish asbobi orqali o'tuvchi asosiy (eng uzoq) aylanma halqasidan boshlaymiz. Sxemada

aylanalar ichida ushbu halqaning hisoblanayotgan qismi (uchastkasi)ning tartib raqami berilgan, o'ngda suratda issiqlikyuklamasi (Vt), maxrajda esa ushbu qismning uzunligi (m) ko'rsatiladi. Ko'rilyotgan qismdagi issiqlikyuklamasi issiqlik oqimini emas, balki talab qilinadigan issiqlik miqdorini tahminlovchi isitish asbobidan oqib o'tayotgan issiqlik tashuvchi sarfini ko'rsatadi. Shuning uchun qaytish magistrali qismlaridagi issiqlik oqimi ko'rsatkichlari uzatish magistralining aynan to'g'ri keluvchi qismlari issiqlik oqimi ko'rsatkichlariga to'g'ri keladi.



Rasm 3. Isitish tizimining umumiy ko'rinishi

Hisoblashlarda har bir metr uzatuvchi quvurlardagi o'rtacha bosim yo'qotishlari 100 Pa ga teng etib qabul qilinadi. Hisoblanayotgan aylanish halqasi uzatuvchi quvurlarining umumiy uzunligi: $\Sigma l = 50,8$ m. Bu holda tizimdagi aylanish bosimining taxminiy qiymati

$$P = 100 \cdot 50,8 = 5080 \text{ Pa.}$$

Quyidagi formuladan ishqalanishda yo'qalayotgan o'rtacha bosimni aniqlaymiz:

$$P_{\text{sp}} = \frac{0,65 \cdot P}{\Sigma l} = \frac{0,65 \cdot 5080}{50,8} = 65 \text{ Pa/m.}$$

Halqaning har bir qismi uchun issiqlik tashuvchining sarfini quyidagi formuladan topamiz:


$$Q_m = \frac{3,6 \cdot \Phi}{4,19 \cdot \Delta t}, \text{ kg/soat}$$

Masalan, halqaning 1 va 13 qismlari uchun sarf bir xil bo'ladi:

$$Q_{m1,13} = \frac{3,6 \cdot 12800}{4,19 \cdot (95 - 70)} = 440 \text{ kg/soat}$$

Halqaning 2 va 11 qismlari uchun:

$$Q_{m2,11} = \frac{3,6 \cdot 9600}{4,19 \cdot 25} = 330 \text{ kg/soat}$$



Rasm 4. Suvli isitish tizimi o'tkazgich quvurlari diametrlarini hisoblash uchun nomogramma

Hisoblashlar natijasi keltiriladigan 10-jadvalning 1...4 ustunlarini to'ldiramiz. Undan so'ng 4-rasmda keltirilgan nomogramma yordamida Q_m va R_{sr} larning qiymatlari yordamida aylanish halqasi qismlari uchun quvur diametrini, issiqlik tashuvchining tezligi(ω)ni va R ning haqiqiy qiymatlarini aniqlaymiz. Topilgan qiymatlarni jadvalning 5...7 ustunlariga yozib qo'yamiz va 8 ustunga R_l ning topilgan qiymatlarini kiritamiz.

Suvli isitish tizimi o'tkazgich quvurlari hisobi blanki

Jadval 10

Halqa qismi №	Issiqlik yuklamasi F_v	Issiqlik tashuvchi sarfi, Q_m , kg/soat	Halqa qismi uzunligi l , m	quvur diametri d , mm	Suvning tezligi ω , m/s	P , Pa/m	P_i , Pa	$\Sigma \zeta$	Z Pa	R_{i+z} Pa
VIII isitish asbobi orqali o'tuvchi bosh aylanma halqa										
1	12800	440	12,1	25	0,23	35	423,5	5,0	130,6	554,1
2	9600	330	5,2	20	0,27	63	327,6	1	35,9	363,5
3	6400	220	5,2	20	0,18	28	145,6	1	15,9	
4	3200	110	5,5	15	0,17	35	192,5	2,5	35,7	228,2
5	1600	55	0,8	15	0,09	12	9,6	6,5	25,9	35,5
6	1600	55	4,4	15	0,09	12	52,8	4	15,9	68,7
7	3200	110	1,2	15	0,17	35	42,0	1	14,3	56,3
8	4800	165	4,0	15	0,23	78	312,0	1	26,1	338,1
9	6400	220	1,2	20	0,18	28	33,6	1	15,9	49,5
10	8000	275	4,0	20	0,22	44	176,0	1	23,8	199,8
11	9600	330	1,2	20	0,27	63	75,6	1	35,9	111,5
12	11200	385	4,0	20	0,32	87	348,0	1	50,3	398,3
13	12800	440	7,0	25	0,23	35	245,0	3,5	91,4	336,4
$\Sigma(RI + Z)_{1-14} = 2901,4 \text{ Pa}$										
1 va 13 qismlarning qayta hisobi										
1	12800	440	12,1	20	0,37	120	1452	6,5	169,7	1621,7
13	12800	440	7,0	20	0,37	120	840	4,5	117,5	957,5
$\Sigma(RI + Z) = 2579,2 \text{ Pa}$										
I isitish asbobi orqali o'tuvchi kichik aylanma halqa										
14	3200	110	0,3	15	0,17	35	10,5	1,5	21,4	31,9
15	1600	55	0,8	15	0,09	12	9,6	6,5	25,9	35,5
16	1600	55	0,4	15	0,09	12	4,8	2,5	10,0	14,8
$\Sigma(RI + Z)_{15-17} = 82,2 \text{ Pa}$										

2 - qism ($d = 20 \text{ mm}$): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\Sigma \zeta_2 = 1$;

3 - qism ($d = 20 \text{ mm}$): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\Sigma \zeta_3 = 1$;

4-qism ($d = 15 \text{ mm}$): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta=1$;

90° li shoxobcha- $\zeta = 1,5$; $\Sigma \zeta_4 = 2,5$;

5 - qism ($d = 15 \text{ mm}$): uch tomonga tarmoqlash jo'mragi - $\zeta = 1,5$; ikki karrali rostlash jo'mragi - $\zeta = 4$; radiatorning yarmi - $\zeta = 1$; $\Sigma \zeta_5 = 6,5$;

6 - qism ($d = 15 \text{ mm}$): radiatorning yarmi - $\zeta = 1$; ikkita 90 °C li shoxobcha - $\zeta = 3$; $\Sigma \zeta_6 = 4$;

7 - qism ($d = 15 \text{ mm}$): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\Sigma \zeta_7 = 1$;

- 8 - qism (d = 15 mm): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\sum \zeta_8 = 1$;
 9 - qism (d = 20 mm): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\sum \zeta_9 = 1$;
 10 - qism (d = 20 mm): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\sum \zeta_{10} = 1$;
 11 - qism (d = 20 mm): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\sum \zeta_{11} = 1$;
 12 - qism (d = 20 mm): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; $\sum \zeta_{12} = 1$;
 13 - qism (d = 25 mm): uch tomonga ajratish teshigi - $\zeta = 1$; 90° li shoxobcha - $\zeta = 2$; surma jo'mrak - $\zeta = 0,5$; $\sum \zeta_4 = 3,5$;

[6, 164 bet 5 ilova]dan berilgan issiqlik tashuvchining oqimi tezligi(ω)dan dinamik bosim qiymatini qabul qilamiz va quyidagi formula yordamida xalqaning hamma qismlari uchun joylardagi qarshiliklardan yo'qotilayotgan bosim(Z)ni topamiz:

$$Z = \sum \zeta \cdot P_d,$$

bunda $\sum \zeta$ - halqa qismlarida joylardagi qarshiliklar koeffitsiyentlari yig'indisi;

$P_d = \omega^2 \cdot \rho / 2$ - suyuqlik oqimining dinamik bosimi, Pa;

ω - issiqlik tashuvchi(suv)ning harakat tezligi, m/s;

ρ - suvning zichligi, kg/m³.

Hisoblashlardan olingan natijalarni 10-jadvalning 10 ustuniga yozib boramiz.

11 ustunga esa halqa qismlarida yo'qolayotgan umumiy bosimlarni aniqlab, yozib boramiz, shundan so'ng hisoblanayotgan halqa uchun yo'qolayotgan bosimlar yig'indisini quyidagicha topamiz:

$$\sum (R_l + Z)_{1...13} = 2761,4 \text{ Pa}$$

Quvurlar diametrlari to'g'ri tanlangan deb hisoblash uchun halqaning e'tiborga olinmagan joylardagi qarshiliklarini hisobga oluvchi zahira bosimining qiymati 10% dan oshmasligi kerak.

Zahiradagi bosim quyidagicha topiladi:

$$\frac{P - \sum (R_l + Z)}{P} \cdot 100 = \frac{5080 - 2761,4}{5080} \cdot 100 = 45,6 \text{ f } 10 \%,$$

Demak, shart bajarilmaganidan halqaning eng ko'p yuklangan 1 va 13 qismlari quvurlari diametrlarini 25 mm dan 20 mm gacha almashtiramiz. Bu holda issiqlik tashuvchining tezligi oshadi, bundan esa ishqalanish va joylardagi qarshiliklar ta'sirida bosim yo'qotishlar oshadi (10-jadvalning qayta hisoblangan 1...13 qismlar).

Hisoblashlardan so'ng, ushbu qismlarda bosim yo'qolishi qiymati birlamchi holatga nisbatan 1688,7 Pa ga oshdi. Shuning uchun bosim yo'qolishi $\sum (R \cdot l + Z)_{1...13} = 2091,4 + 1688,7 = 4590,1 \text{ Pa}$ ga teng.

Bundan bosim zahirasi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{P - \sum (R \cdot l + Z)}{P} \cdot 100 = \frac{5080 - 4590,1}{5080} \cdot 100 = 9,6 \%,$$

bu esa quyiladigan shartni qanoatlantiradi.

Asbob 1 orqali o'tuvchi kichik aylanish halqasi uchun hisoblashlar bajaramiz.

Yangi 14,15 va 16 qismlar uchun avvalgi o'xshash qismlar hisobini bajaramiz. Berilgan va hisoblab topilgan qiymatlarni 10-jadvalga kiritamiz.

Kichik halqadagi umumiy bosim yo'qolishi

$\sum (R \cdot l + Z)_{1..13} = 1123,4 + 498,3 + 82,2 + 957,5 = 2661,4$ Pa ga teng, bu qiymat esa isitish tizimi uchun mo'ljallanayotgan aylanish bosimi (5080 Pa) dan ancha kichik.

14, 15 va 16 qismlar quvurlari diametrlarini kichiraytirish mumkin emas, chunki ular minimal (15 mm) qiymatga ega, shuning uchun tizimga mo'ljallangan bosimning ortiqchasini 1 isitish asbobi o'lagichiga o'rnatilgan ikkilamchi tuzatish jumragi bilan pasaytirish mumkin.

Isitish tizimidagi boshqa asboblarning o'lagichlari quvurlari diametrini ham 15 mm etib qabul qilamiz.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Suvli va suv bug'i bilan isitish tizimi sxemasini tushuntirib bering?
2. Isitish tizimi uchun quvurlar tanlovi qanday amalga oshiriladi?
3. Kichik va katta suv aylanish tizimi nima?
4. Ochiq quvurlardan issiqlik ajralishi qanday hisoblanadi?
5. Suvli isitish tizimida suv sarfi va suv harakatiga qarshilik qanday hisoblanadi?
6. Nasos talab qiladigan bosim qanday hisoblab topiladi?
7. Joylardagi qarshiliklar nima qanday aniqlanadi?

4-masala

Masala 1 ning berilgan ko'rsatkichlari bo'yicha xo'jalik ta'mirlash ustaxonasining chilangar-mexanik bo'limi uchun kerakli havo almashinish sarfini hisoblab toping. Havo almashinishining karrali soni $K = 2,5$.

Yechish

Binoning chilangar-mexanik bo'limi hajmi:

$$V_N = 10,7 \cdot 5,62 \cdot 4 + 10,7 \cdot \frac{5,62 \cdot 12}{2} = 276,4 \text{ m}^3$$

Havo almashinish sarfi quyidagicha topiladi:

$$Q = K \cdot V_x = 2,5 \cdot 276,4 = 691 \text{ m}^3/\text{soat}$$

4-vazifa

Vazifa 1 da berilgan ko'rsatkichlar bo'yicha masala 4 ni yeching.

4. CHORVACHILIKDA ISITISH TIZIMI XISOBI

5-masala

Chorva tagiga solinadigan to'shamasiz molxonada bog'langan holda saqlanayotgan 200 bosh sigirlar bor xonani sovuq mavsum davrida shamollatish uchun kerak bo'ladigan havo almashinish sarfmi aniqlang. Sigirlarning o'rtacha laktatsiyalanishi (sut berishi) 15 litrni, har bir sigirning tirik vazni o'rtacha 550 kg ni tashkil qiladi. Sigirlar joylashgan bino (molxona) xonasining o'rtacha o'lchamlari: uzunligi - 66 metr; eni - 20,5 metr, balandligi - 2,8 metr. Tashqi o'rab turuvchi havo harorati $t_t = -25^\circ\text{C}$, nisbiy namligi $\varphi_t = 85\%$, xona havosi uchun - $t_i = 10^\circ\text{C}$, $\varphi_i = 70\%$. Barometrik bosim 99,3 kPa.

Yechish

Sovuq mavsum davri uchun chorvachilik binolarida havo almashinishi hisobi havo tarkibidagi namlikka nisbatan havo tarkibidagi zaharli gazlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Havo tarkibidagi namlik bo'yicha havo almashinish hisobi.

Bitta chorvadan ajralayotgan namlik miqdori [5, 277 bet, 19 ilova] dan olinadi:

$$W_{ch} = 476 \text{ g/soat.}$$

Molxona binosi ichki devorlari yuzasidan bug'lanayotgan nam miqdori chorvalardan ajralayotgan nam miqdorining 10 % ni tashkil qiladi. U holda umumiy ajralayotgan nam:

$$W = 1,1 \cdot 476 \cdot 200 = 104700 \text{ g/soat.}$$

Tashqi atmosfera havosi va molxona ichidagi havolarning namlik saqlash xususiyatlari (d) ni H-d diagramma [ilova, 129 bet]dan topamiz:

$t_t = -25^\circ\text{C}$ va $\varphi_t = 85\%$ bo'lganda $d_t = 0,5 \text{ g/kg}$ quruq havoda;

$t_i = +10^\circ\text{C}$ va $\varphi_i = 70\%$ bo'lganda $d_i = 5,3 \text{ g/kg}$ quruq havoda.

Havoning zichligi quyidagi formuladan topiladi:

$$\rho = \frac{346}{273 + t} \cdot \frac{P_1}{P}, \text{ kg/m}^3$$

bunda t - havo harorati, $^\circ\text{C}$; P = 99,3 kPa - barometrik bosim;

P_1 - berilgan xo'jalik joylashgan tumandagi hisobiy barometrik bosim.

$$\rho = \frac{346}{273 + 10} = 1,223 \text{ kg/m}^3$$

Xonadagi havo tarkibidagi ortiqcha namlikni haydash uchun havo almashinish sarfi quyidagicha topiladi:

$$Q_w = \frac{W}{(d_u - d_r) \cdot \rho} = \frac{104700}{(5,3 - 0,5) \cdot 1,223} = 17800 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Havo tarkibidagi zaharli gaz miqdorini kamaytirish uchun havo almashinish sarfi.

Bitta chorvadan ajralayotgan zaharli gaz - uglekislotalar hajmi [5, 277 bet, 19 ilova]dan olinadi: $V_{CO_2} = 150 \text{ l/soat}$. Chorva saqlanayotgan molxona ichidagi havo tarkibida ruxsat etilgan SO_2 konsentratsiyasi $S_1 = 2,5 \text{ l/m}^3$, tashqi atmosfera havosida SO_2 ning miqdori $S_T = 0,3 \text{ l/m}^3$ [6, 161 bet, 2 ilova].

Bino xonasi ichidagi havo tarkibida zaharli gazlar (ko'pincha SO_2) konsentratsiyasi miqdori ruxsat etilganidan oshganda havo almashinish sarfi quyidagi formuladan topiladi: $Q_3 = \frac{V_3}{C_u - C_T}, \text{ m}^3/\text{soat}$,

bunda V_3 - xonada ajralayotgan zaharli gazlar hajmi, l/soat;

S_1 - xona havosi tarkibidagi zaharli gazlarning ruxsat etilgan konsentratsiyasi, l/m³;

S_T - tashqaridan kiritilayotgan havo tarkibidagi zaharli gazlarning ruxsat etilgan konsentratsiyasi, l/m³ (uglekislotalar uchun $S_T = 0,3 \text{ l/m}^3$).

$$Q_{CO_2} = \frac{150 \cdot 200}{2,5 - 0,3} = 13460 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Berilgan molxona uchun havo almashinish sarfining namlik bo'yicha Yuqori qiymatga ega ekanligidan qabul qilamiz:

$$Q = Q_w = 17840 \text{ m}^3/\text{soat}.$$

Molxonaning berilgan xonasi hajmi $V = 66 \cdot 20,5 \cdot 2,8 = 3790 \text{ m}^3$

Havo almashinishning karrali soni $K = 17840 / 3790 \approx 4,7$

bu ko'rsatkich chorvachilik binolarini sovuq mavsum davrida shamollatish uchun berilgan me'yoriy ko'rsatkichlarga ($K = 3 \dots 5$) mos keladi.

5-vazifa

Chorva tagiga solinadigan to'shamasiz molxonada bog'langan holda saqlanayotgan n_c bosh sigirlar bor xonani sovuq mavsum davrida shamollatish uchun kerak bo'ladigan havo almashinish sarfini aniqlang. Sigirlarning o'rtacha laktatsiyalanishi (sut berishi) L litrni, har bir sigirning tirik vazni o'rtacha m kg ni tashkil qiladi. Sigirlar joylashgan bino (molxona) xonasining o'rtacha o'lchamlari: uzunligi - 66 metr; eni - 20,5

metr, balandligi - 2,8 metr. Tashqi o'rab turuvchi havo harorati t_t °S, nisbiy namligi φ_t %, xona havosi uchun - $t_i = 10$ °C, $\varphi_i = 75$ %. Barometrik bosim 99,3 kPa. Vazifani yechish uchun ma'lumotlar jadval 11 da keltirilgan.

Jadval 11

Berilgan ko'rsatkichlar	Shifrning oxiridan oldingi soni									
	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
n_c ,	190	195	205	210	220	225	230	240	245	250
L , litr	10	12	13	14	15	20	15	16	17	18
m , kg	450	470	430	480	500	510	520	530	540	460
t_t , °C	-10	-12	-14	-16	-18	-20	-24	-26	-28	-22
φ_t , %	75	85	80	70	75	80	85	70	65	80

6-masala

Masala 5 ning topilgan qiymatlari uchun xonaga kiritilayotgan havoni qizdirish uchun kalorifer qurilmasini tanlang. Sigirxonadagi ortiqcha issiqlik oqimi 108000 Vt ni tashkil qiladi; nam ajralishi - 104700 g/soat. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchi - 29,4 kPa ortiqcha bosimli suv bug'i.

Yechish.

Shamollatishda ichki havo tarkibidagi namlik va issiqlikbarvarakayiga tashqariga haydalishini hisobga olib, kiritilayotgan havoning kaloriferdan keyingi haroratini H-d-diagramma yordamida aniqlaymiz. Bu hol uchun issiqlik- namlik nisbati koeffitsiyenti (jarayon yoyi koeffitsiyenti)ni aniqlaymiz:

$$\varepsilon = \frac{3600 \cdot \Phi_{\text{opt}}}{W}, \quad \text{kJ/kg}$$


bunda F_{ort} - ortiqcha issiqlik miqdori, W - ortiqcha namlik miqdori.

$$\varepsilon = \frac{3600 \cdot 108000}{104700} = 3720 \text{ kJ/kg}$$

Diagrammada xona ichidagi havoning ko'rsatkichlari ($t_i=+10$ °C, $\varphi_i=70$ %) bo'yicha V nuqtani belgilab, bu nuqta orqali jarayon yoyi koeffitsiyenti $\varepsilon = 3720$ ga parallel to'g'ri chiziq o'tkazamiz, pastdan Yuqoriga esa $d_i=0,5$ g/kg qiymatdan vertikal chiziq chizamiz. Ikkala chiziqlar kesishgan nuqtani P harfi bilan belgilaymiz. Ushbu kesishish nuqtasidan o'tadigan xarorat chizig'i ko'rsatkichi kiritilayotgan havo

haroratining kalariferdan keyingi qiymatini ko'rsatadi: $t_{kr}=t_k=4\text{ }^{\circ}\text{C}$. Bu haroratda havo zichligi

$$\rho = \frac{346}{273 + 4} = 1,249 \text{ kg/m}^3$$



Rasm 3. Xonadagi ortiqcha issiqlik va namlikni haydash uchun havo almashinish sarfi hisobi uchun

Kiritilayotgan tashqi havoni qizdirish uchun kerak bo'ladigan issiqlik oqimi quyidagi formuladan topiladi:

$$F = 0,278 \cdot Q \cdot \rho \cdot C_r \cdot (t_k - t_l), \text{ Vt}$$

bunda Q - havoning hajmiy sarfi, m^3/soat ;

ρ - t_k haroratidagi havoning zichligi, kg/m^3 ;

$C_r = 1 \text{ kJ}/(\text{kg} \cdot ^{\circ}\text{C})$ - havoning solishtirma izobarik issiqlik sig'imi;

t_k - havoning kalariferdan keyingi harorati, $^{\circ}\text{C}$;

t_l - tashqi havoning kalarifergacha bo'lgan harorati, $^{\circ}\text{C}$.

$$F = 0,278 \cdot 17840 \cdot 1,249 \cdot 1 \cdot [4 - (-25)] = 179600 \text{ Vt.}$$

[6, 31 bet, rasm 10] dan havoning massaviy tezligini $v\rho = 8,5 \text{ kg}/(\text{s} \times \text{m}^2)$ ga teng deb qabul qilamiz va quyidagi formuladan kalariferning havo o'tishi bo'yicha kesim yuzasini aniqlaymiz:

$$f_x = \frac{Q \cdot \rho}{3600 \cdot (v\rho)_x} \text{ m}^2$$

bunda $(v\rho)_x$ - havoning hisobiy massaviy tezligi,

$4...12 \text{ kg}/(\text{s} \cdot \text{m}^2)$ son qiymat qabul qilinadi,

$$f_x = \frac{17840 \cdot 1,249}{3600 \cdot 8,5} = 0,728 \text{ m}^2$$

Plastinkali kaloriferlarning asosiy ko'rsatkichlari

Jadval 12

Kalo rifer nomeri	Isitish yuzasi maydoni, m ²	Kesim yuzalari, m ²			Massa, kg		
		havo bo'yicha	issiqlik tashuvchi bo'yicha				
		KVB K3PP K3VP	KVB K3PP	K3VP	KVB	K3PP	K3VP
2	9,9	0,115	0,0046	0,00076	53	56	55
3	13,2	0,154	0,0061	0,00076	69	75	72
4	16,7	0,195	0,0061	0,00076	85	90	87
5	20,9	0,244	0,0076	0,00096	106	110	107
6	25,3	0,295	0,0076	0,00096	125	129	125
7	30,4	0,354	0,0092	0,00114	152	155	148
8	35,7	0,416	0,0092	0,00114	174	178	172
9	41,6	0,486	0,0107	0,00178	201	204	198
10	47,8	0,558	0,0107	0,00178	224	232	225
11	54,6	0,638	0,0122	0,00203	-	260	253

12 jadvalda havo o'tishi bo'yicha 0,728 m² kesim yuzali kalorifer yo'q. Shuning uchun kesim yuzasi $f=0,354$ m² bo'lgan K3PP - 7 kaloriferdan ikkitasini parallel o'rnatamiz, bundan $f=2 \cdot 0,354 = 0,708$ m².

Havoning haqiqiy massaviy tezligi

$$v_p = \frac{Q \cdot \rho}{3600 \cdot f} = \frac{17840 \cdot 1,249}{3600 \cdot 0,708} = 8,74 \text{ kg/(s} \cdot \text{m}^2\text{)}$$

[6, 31 bet, rasm 10] dan tanlangan kalorifer uchun issiqliko'zatisht koeffitsiyentining qiymatini topamiz: $K = 31,1$ Vt/(m²·°C). Kaloriferning haqiqiy issiqlik berish yuzasi $2 \cdot 30,4 = 60,8$ m².

quyidagi formuladan tanlangan kalorifer uchun olinadigan haqiqiy issiqlik oqimini topamiz:

$$\Phi_K = K \cdot F \cdot (t'_{YP} - t_{YP}), \text{ Vt}$$

bunda K - issiqlik uzatish koeffitsiyenti, Vt/m²·°C;

F - kaloriferning isitish yuzasi maydoni, m² (kaloriferlar parallel ulanganida yuzalar qo'shiladi);

t_{ur} - issiqlik tashuvchining o'rtacha qiymati, °C;

Issiqlik tashuvchi suv bo'lganda $t_{ur} = (t_g - t_o)/2$. Agar issiqlik tashuvchi 29,4 kPa ortiqcha bosimli to'yingan suv bug'i bo'lsa, $t_{ur} = 100$ °C; $t_{ur} = (t_k + t_i)/2$ - qizdirilayotgan havoning o'rtacha harorati, °C.

$$\Phi_K = 31,1 \cdot 60,8 \cdot \left(100 - \frac{4 - 25}{2}\right) = 208900 \text{ Vt.}$$

Issiqlik berish bo'yicha zahira issiqlik miqdori

$$\frac{208900 - 179600}{179600} \cdot 100 = 16,3 \% \text{ ni tashkil qiladi.}$$

Agar $F_K = (1,15 \dots 1,2) \cdot F$ bo'lsa, kalorifer tanlanishi to'g'ri hisoblanadi. Bizning holatda $F_K = 1,163 \cdot F$, demak, kalorifer tanlash hisobi to'g'ri olib borilgan.

6-vazifa

Vazifa 5 ning olingan qiymatlari uchun molxonaga kiritilayotgan havoni qizdirishga kalorifer qurilmasini tanlang.

5. KALORIFER TANLASH

7-masala

Xo'jalik mexanik ustaxonasini shamollatish uchun ustaxonaga kiritilayotgan tashqi havo sarfi $15000 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lganda havoni qizdirish maqsadida kalorifer tanlang. Tashqi havoning hisoblashlar uchun ko'rsatkichlari quyidagilar: $t_T = -29^\circ\text{C}$, shamollatish hisobi uchun harorat : $t_{T,K} = -20^\circ\text{C}$; havoning kaloriferdan keyingi harorati $t_K = +18^\circ\text{C}$, tashqi havo barometrik bosimi $101,3 \text{ kPa}$. Issiqlik tashuvchi ishchi jism suv bo'lib, uzatish magistralida suv harorati 95°C , qaytish magistralida -70°C .

Yechish

$$\text{Havoning zichligi } \rho = \frac{346}{273+18} \cdot \frac{101,3}{99,3} = 1,213 \text{ kg/m}^3$$

Ustaxonaga kiritilayotgan tashqi havoni qizdirish uchun talab qilinadigan issiqlik oqimi quyidagicha topiladi:

$$F = 0,278 \cdot 15000 \cdot 1,213 \cdot [18 - (-20)] = 192000 \text{ Vt.}$$

Mascaviy tezlikni $\nu\rho = 8 \text{ kg}/(\text{s} \cdot \text{m}^2)$ qiymatini qabul qilamiz va kalorifer qurilmasining havo o'tkazish bo'yicha hisobiy kesim yuzasini aniqlaymiz:

$$f_K = \frac{15000 \cdot 1,213}{3600 \cdot 8} = 0,63 \text{ m}^2.$$

Jadval 12 dan KFB - 11 kaloriferini tanlab olamiz ($f = 0,638 \text{ m}^2$, $F = 54,6 \text{ m}^2$, $f_v = 0,0122 \text{ m}^2$) va havo massaviy tezligining aniq son qiymatini topamiz:

$$\upsilon\rho = \frac{15000 \cdot 1213}{3600 \cdot 0,638} = 7,92 \text{ kg/(s} \cdot \text{m}^2)$$

Suvning kalorifer quvurlaridagi tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\omega = \frac{\Phi}{10^3 \cdot \rho_c \cdot C_c \cdot (t_r - t_o) \cdot f_{KB}}, \text{ m/s}$$

bunda ρ_s - suvning zichligi, $\rho_s = 1000 \text{ kg/m}^3$;

s_s - suvning solishtirma issiqlik sig'imi,

$s_s = 4,19 \text{ kJ/kg} \cdot ^\circ\text{C}$;

t_g, t_o - suvning kaloriferga kirishi va undan chiqishidagi haroratlari, $^\circ\text{C}$;

f_{KV} - kaloriferning issiqlik tashuvchi ishchi jism o'tishi uchun quvurlari ko'ndalang kesim yuzasi, m^2 ;

$$\omega = \frac{192000}{10^6 \cdot 4,19 \cdot (95 - 70) \cdot 0,0122} = 0,15 \text{ m/s.}$$

[6, 31 bet, rasm 10] dan $\upsilon\rho = 7,92 \text{ kg/(s} \cdot \text{m}^2)$ va $\omega = 0,15 \text{ m/s}$ qiymatlar uchun issiqlik uzatish koeffitsiyentini topamiz:

$$K = 25,3 \text{ Vt/(m}^2 \cdot ^\circ\text{C)}.$$

Kaloriferning haqiqiy issiqlik berishi

$$\Phi_K = 253 \cdot 54,6 \cdot \left(\frac{95 + 70}{2} + \frac{18 - 20}{2} \right) = 112500 \text{ Vt}$$

qurilma uchun ikkita ketma-ket ulangan kaloriferni qabul qilamiz:

$$F_{K=2} = 2 \cdot 112500 = 225000 \text{ Vt}$$

Kaloriferning zahira issiqlik berishi

$$\frac{225000 - 192000}{192000} \cdot 100 = 17,2\%$$

bu kalorifer tanlash shartlarini qanoatlantiradi.

7-vazifa

Xo'jalikning mexanik ustaxonasini shamollatish uchun ustaxonaga kiritilayotgan tashqi havo sarfi $Q \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lganda havoni qizdirish maqsadida kalorifer tanlang. Tashqi havoning hisoblashlar uchun ko'rsatkichlari quyidagilar: t_t $^\circ\text{C}$, shamollatish hisobi uchun harorat : t_{tk} $^\circ\text{C}$; havoning kaloriferdan keyingi harorati : t_K $^\circ\text{C}$, tashqi havo barometrik bosimi R_b kPa. Issiqlik tashuvchi ishchi jism suv bo'lib, uzatish magistralida suv harorati t_x $^\circ\text{C}$, qaytish magistralida - t_q $^\circ\text{C}$.

Vazifa 7 uchun ma'lumotlar jadval 13 da keltirilgan.

Jadval 13

Shifning oxiridan oldingi soni	$t_t, ^\circ\text{C}$	$t_{t.k.}, ^\circ\text{C}$	$Q, \text{m}^3/\text{soat}$	$t_{k.}, ^\circ\text{C}$	Shifning oxirgi soni	P_b, kPa	$t_x, ^\circ\text{C}$	$t_q, ^\circ\text{C}$
0	-20	-15	12000	18	0	100	90	70
1	-22	-17	13000	20	1	102	95	75
2	-24	-19	14000	18	2	101	90	70
3	-18	-13	16000	20	3	99	95	75
4	-26	-21	11000	18	4	98	90	70
5	-30	-25	19000	20	5	100	95	75
6	-19	-14	13000	18	6	101	90	70
7	-21	-16	16000	20	7	102	95	75
8	-23	-18	17000	18	8	100	90	70
9	-27	-22	20000	20	9	99	95	75

6. CHORVACHILIK BINOLARINI SHAMOLLATISH XISOBI

8-masala

5 va 6 masalalardagi berilgan qiymatlar yordamida molxona uchun shamollatish (ventilyatsiyalash) tizimini hisoblang. Molxona sxemasi 4-rasmda keltirilgan.

Jadval 14

qism t.r.	$Q, \text{m}^3/\text{soat}$	l, m	$v, \text{m/s}$	d, mm	$P, \text{Pa/m}$	Pl, Pa	$\sum \zeta$	P_D, Pa	Z, Pa	$RI + Z, \text{Pa}$
1	17840	10	15	648	3,0	30,0	2,30	140	322	352
2	8920	5	12	512	2,7	13,5	0,25	90	22,5	36
3	4460	30,5	7	475	1,08	33,0	22,0	30,6	673	706
$\sum (Pl + Z) = 1094 \text{ Pa}$										

Yechish


1. Shamollatish tarmog'ini havo sarfi o'zgarmas bo'lgan alohida qismlarga bo'lamiz va aylanalar ichiga ularning tartib raqamlarini yozib qo'yamiz, aylananing o'ng tomoniga suratda berilgan qismdagi havo sarfini (m^3/soat), maxrajda esa qismning uzunligini (m) keltiriladi.

2. Havoning harakat tezligi (v) ni 1 qism uchun 15 m/s, 2 qismda -

12 m/s, 3...6 qismlarda - 6-7 m/s qabul qilib, quyidagi formuladan qismlar uchun havo quvurlari diametrlarini aniqlaymiz va hisoblash natijalarini 14 jadvalga kiritamiz:

$$d_i = \sqrt{\frac{4 \cdot Q_i}{3600 \cdot \pi \cdot v_i}} = \sqrt{\frac{Q_i}{900 \cdot \pi \cdot v_i}} \quad \text{m}$$

bunda Q_i - havo sarfi, m³/soat.



Rasm 4. Molxonani shamollatish tizimini hisoblash sxemasi

3. Bino bo'ylab bir tekis havo tarqatishni ta'minlash to'rtta bo'ylama havo uzatkich yordamida amalga oshiriladi (3...6 qismlar). Ventilyator qurilmasidan eng uzoq joylashgan 5 qism uchun havo chiqish teshik yuzasini hisoblab topamiz.

Teshiklar orasidagi masofani 2 metrdan qabul qilamiz, u holda umumiy uzunligi $l = 30,5$ metr bo'lgan havo uzatkichning to'g'ri chiziqli qismida 15 ta teshik bo'ladi. Havoning teshikdan chiqishdagi tezligini 6 m/s qabul qilib, quyidagi formula yordamida ventilyatordan eng uzoq joylashgan teshikning yuzasini topamiz:

$$f_1 = \frac{Q_i}{3600 \cdot n \cdot v} = \frac{4460}{3600 \cdot 15 \cdot 6} = 0,0137 \text{ m}^2.$$

Havo quvurining ko'ndalang kesimi $F = 3,14 \cdot 0,475^2 / 4 = 0,178 \text{ m}^2$ ni aniqlab, havo quvuridagi teshiklar soni quyidagitengsizlikni qanoatlantirishni tekshiramiz:

$$n < 1 + \frac{F}{\mu \cdot f_1} = 15 < 1 + \frac{0,178}{0,65 \cdot 0,0137} = 21$$

Demak, $15 < 21$ ekanligidan, teshiklar soni to'g'ri tanlangan.

Quyidagi formuladan A_i koeffitsiyentlarning qiymatlarini 2...15 teshiklar uchun hisoblab topamiz:

$$A_i = \sqrt{\frac{1}{1 - \left[\frac{\mu \cdot (i - 1) \cdot f_1}{F} \right]^2}} = A_2 = \sqrt{\frac{1}{1 - \left[\frac{0,65 \cdot (2 - 1) \cdot 0,0137}{0,178} \right]^2}} = 1,001$$

$$A_3 = 1,01; A_4 = 1,023; \dots A_{15} = 1,4.$$

Havo quvurining 2...15 teshiklari yuzasini quyidagicha topamiz:

$$f_1 = A_1 \times f_i; f_2 = 1,001 \cdot 0,0137 = 0,01371 \text{ m}^2;$$

$$f_3 = 1,01 \cdot 0,0137 = 0,0138 \text{ m}^2; f_4 = 1,023 \cdot 0,0137 = 0,014 \text{ m}^2;$$


$$\dots f_{15} = 1,4 \cdot 0,0137 = 0,0192 \text{ m}^2.$$

4. 5 rasmdagi nomogramma yordamida shamollatish tarmog'ining eng uzun shaxobchasidagi (1,2 va 5 qismlar) ishqalanishdan yo'qolayotgan bosimni aniqlaymiz. Masalan, 1 qism uchun nomogramma o'qlaridan $d_1 = 648 \text{ mm}$ va $v_1 = 15 \text{ m/s}$ nuqtalarini topamiz. Ushbu nuqtalardan tiklangan perpendikulyarlar $R_1 = 3 \text{ Pa/m}$ qiymatini ko'rsatadi. Nomogrammaning

Yuqori qismi ko'rsatkichlaridan berilgan tezlik uchun oqimning dinamik bosimini 1 qism uchun topamiz: $P_{D1} = 135 \text{ Pa}$ ($\rho = 1,2 \text{ kg/m}^3$ uchun). 4°C haroratli kiritilayotgan havoning haqiqiy zichligi quyidagicha topiladi: $\rho_t = 346/(273 + 4) = 1,249 \text{ kg/m}^3$. Shuning uchun $P_{D1} = 135 \cdot 1,249/1,2 = 140 \text{ Pa}$. Xuddi shunday qilib tarmoqning 2 va 5 qismlari uchun ham P va P_D larning qiymatlarini topamiz va olingan natijalarni 14 jadvalning to'g'ri keladigan ustunlariga yozib qo'yamiz.

5. P_1 ning hamma qiymatlarini hisoblab topamiz.

6. 15 jadval yordamida joylardagi qarshiliklar koeffitsiyentlarni aniqlaymiz:



Rasm 5. Aylana kesimli po'lat havo quvurlarini hisoblash uchun nomogramma

1 qism: oqimning yo'nalishi o'zgartiruvchi jalyuz (darparda)li panjara kirish - $\zeta = 2$; quvurning ventilyatorga yaqinlashandagi torayish joyi

yaoni diffuzor - $\zeta = 0,15$; aylana kesimli 90° li shaxobcha ($R/d = 2$) - $\zeta = 0,15$; $\sum \zeta_1 = 2,3$;

2 qism: kesimning birdan torayish joyi

$(F_5/F_1 = d_2^2/d_1^2 = 512^2 / 648^2 = 0,62)$ - $\zeta = 0,25$; $\sum \zeta_2 = 0,25$;

5 qism: kesimning birdan qisqarish joyi

$(F_5/F_2 = d_5^2/d_2^2 = 475^2 / 512^2 = 0,86)$ - $\zeta = 0,1$; aylana kesimli 90° li shaxobcha ($R/d = 2$) - $\zeta = 0,15$; 15 ta yon chiqish teshiklari ($v_0/v_1 = 6/7 = 0,86$) - $\zeta = 1,45 \cdot 15 = 21,75$; $\sum \zeta_6 = 22,0$;

Topilgan natijalarni 14 jadvalga kiritamiz.

7. 1,2 va 5 qismlar uchun $Z = \sum \zeta R_D$ ning qiymatlarini hisoblab topamiz va 14 jadvalga kiritamiz.

8. qismlar bo'yicha va umumiy shamollatish tarmog'i uchun yo'qalayotgan bosimlar yig'indisi $\sum R \cdot l + Z$ ni hisoblab topamiz:

$\sum R \cdot l + Z = 1094 \text{ Pa}$.

9. Tarmoqdan chiqayotgan havo tezligi ($v = 6 \text{ m/s}$) uchun

$R_D = 6^2 \cdot 1,249/2 = 22,5 \text{ Pa}$ ni topib va 6 rasmdagi grafikdan K3PP rusumli kaloriferlar uchun havoning massaviy tezligi $8,74 \text{ kg/(s} \cdot \text{m}^2)$ bo'lgandagi qarshilik 55 Pa ekanligini topamiz, bundan foydalanib esa quyidagi formuladan ventilyatorning haydashi kerak bo'lgan to'liq bosimini hisoblab topamiz:

$P_V = 1,1 \cdot [\sum (R \cdot l + Z) + R_{D,V} + R_K] = 1,1 \cdot (1094 + 22,5 + 55) = 1288 \text{ Pa}$.

10. Ventilyatorning havo sarfini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

Havo quvurlari uchun joylardagi qarshiliklar koeffitsiyentlari ζ

Jadval 15

Joylardagi qarshiliklar turlari	ζ
Oqimni yo'nalishini o'zgartiruvchi jalyuz panjarasiga kirish	2
Ventilyator diffuzori	0,15
Aylana yoki kvadrat kesimli 90° li tirsak	1,1
90° li to'g'ri burchak kesimli $b/a = 0,5; 1,0; 1,5; 2,0$ bo'lgan tirsak	1,65; 1,1; 0,77; 0,53
Kesimning birdan kengayishi $F_1/F_2 = 0,1; 0,3; 0,5; 0,7$	0,8; 0,5; 0,25; 0,1
Kesimning birdan qisqarishi $F_2/F_1 = 0,1; 0,3; 0,5; 0,7$	0,47; 0,38; 0,3; 0,2
$R/d = 1; 2; 3$ dagi aylana yoki kvadrat kesimli 90° li shoxobcha	0,25; 0,15; 0,12


Joylardagi qarshiliklar turlari	ζ
$R/a = 1$ va $b/a = 0,5; 1,0; 1,5; 2,0$ dagi to'g'ri burchak kesimli 90° shoxobcha	0,38; 0,25; 0,18; 0,12
Xuddi shunday, $R/a = 2$ bo'lgandagi	0,23; 0,15; 0,11; 0,07
Xuddi shunday, $R/a = 3$ bo'lgandagi	0,18; 0,12; 0,08; 0,06
$v_0/v_1 = 0,4; 0,6; 1,0; 1,2$ bo'lgandagi o'tkir qirrali yon teshiklardan chiqish	1,1; 1,25; 1,6; 1,8
Oqim yo'nalishining o'zgarib chiqishi:	
panjarasiz	2,0
panjarali	2,5
qopqoqli so'ruvchi mo'ri	1,3
Silindrik deflektor	1,0
<u>Izoh:</u> R - havo uzatkich o'qining burilish radiusi; d - diametr yoki kvadrat kesimining tomoni; b va a - to'g'ri burchakli havo o'tkazgichning balandligi va eni; v_0 - havo o'tkazgichning yon teshiklaridan chiqish tezligi; v_1 - havo o'tkazgichdagi havoning tezligi	

$$Q_B = k_{\Pi} \cdot Q \cdot \frac{273 + t}{273 + t_B} = 1,1 \cdot 17840 \cdot \frac{273 + 4}{273 + 10} = 19200 \text{ m}^3/\text{soat}$$

bunda k_p - havo quvurlarida tashqi so'rilishlarni tuzatish koeffitsiyenti (uzunligi 50 m gacha bo'lgan po'lat, plastmassa va asbotsementli quvurlar uchun 1,1, boshqa hollarda - 1,15); t - ventilyator orqali o'tuvchi havoning harorati, $^\circ\text{C}$; t_B - binoning ishchi qismidagi havo harorati, $^\circ\text{C}$.

11. Ventilyator tanlashni 7 rasmda keltirilgan nomogrammadan topamiz. O'ng tomonda joylashgan shkaladan $Q_B = 19200 \text{ m}^3/\text{soat}$ nuqtasini topamiz. Ushbu nuqtadan o'tkazilgan gorizontol to'g'ri chizig'i bilan kesishadigan nur orqali № 8 raqamli ventilyator topiladi.

Topilgan nuqtani yuqoriga vertikal ko'chirib, $P_V = 1288 \text{ Pa}$ chizig'i bilan kesishgan no'tasida ventilyatorning foydali ish koeffitsiyenti $\eta_V = 0,79$ ni va o'lchamsiz koeffitsiyent $A = 9300$ ni topamiz, ventilyatordan chiqishdagi havo tezligi 17 m/s ni tashkil etadi, bundan ventilyator o'qi aylanishlar sonini quyidagicha topamiz:



Rasm 6. Bir qator darpardali kaloriferdan havo o'tishida bosim kamayishi

$$n = \frac{A}{N_0} = \frac{9300}{8} = 1162 \text{ ayl/min.}$$

Ventilyator uchun elektr dvigatelning talab qiladigan quvvati quyidagi formuladan topiladi:

$$N_B = \frac{Q_B \cdot P_B}{3,6 \cdot 10^6 \cdot \eta_B \cdot \eta_{\Pi}} = \frac{19200 \cdot 1288}{3,6 \cdot 10^6 \cdot 0,79 \cdot 0,95} = 9,1 \text{ kVt.}$$

bunda η_V - ventilyatorning foydali ish ko'effitsiyenti, nomogrammadan topilgan qiymat; η_P - uzatmaning foydali ish ko'effitsiyenti (ventilyator g'ildiragining elektr dvigatel valiga to'g'ridan-to'g'ri o'rnatilishida $\eta_P = 1$, muftali bog'lanish uchun $\eta_P = 0,98$, tasmali uzatmalar uchun $\eta_P = 0,95$).

quyidagi 16-jadvaldan elektr dvigateli quvvatining zahira ko'effitsiyentini topamiz:

Elektr dvigateli zahira quvvati koeffitsiyenti

Jadval 16

Elektr dvigateli vali quvvati, kVt	Ventilyatorlar uchun zahira koeffitsiyen- ti, k_z	
	markazdan qochma	o'q bo'ylab
< 0,5	1,5	1,2
0,5 dan 1,0 gacha	1,3	1,15
1,01 dan 2 gacha	1,2	1,1
2,01 dan 5 gacha	1,15	1,05
> 5	1,1	1,05


Bundan, $k_z = 1,1$. quyidagi formuladan elektr dvigatelining belgilangan quvvatini topamiz:

$$N_{bel} = k_z \cdot N_B = 1,1 \cdot 9,1 = 10 \text{ kVt.}$$

Katalogdan quvvati va val aylanishlar soni yaqin elektr dvigateli tanlaymiz. Aylanishlar soni farq qilganda, ventilyator va elektr dvigatellari orasidagi tasmali uzatkich shkivi diametrini tanlash orqali rostlanadi.

8-vazifa

5 va 6 vazifalardagi berilgan qiymatlar yordamida molxona uchun shamollatish (ventilyatsiyalash) tizimini hisoblang. Molxona sxemasi 4 rasmda keltirilgan.



Rasm 7. S4-70 rusumli markazdan qochma ventilyatorlarni tanlash nomogrammasi

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Chorravchilik va parrandachilik inshootlarida shamollatish hisobi kaysi zaharlovchi faktorlar asosida yilning sovuq, issiq va o'tish davrlarida hisoblangadi?
2. Havo tarkibidagi ortiqcha zaharli gazlar, suv bug'lari va ortiqcha issiqlik miqdorlariga nisbatan shamollatish uchun havo sarflari tenglamalarini keltiring.
3. Isitish tizimi uchun issiqlik quvvati tenglamasini yozing va unga kiruvchi qiymatlarni tushuntirib bering?
4. Kalorifer qanday tanlanadi? Uni hisoblash asoslari va tenglamasini keltiring va tushuntirib bering.
5. Ventilyator tanlash qanday amalga oshiriladi?

7. KONVEKTIV G'ALLA QURITGICHNING ISSIQLIK XISOBI

9-masala


Oziq - ovqat g'allasi bug'doyni quritish uchun ish unumdorligi 0,43 tonna/soat bo'lgan konvektiv quritkichning issiqlik hisobini bajaring. quritkichni hisoblash sxemasi 8 rasmda keltirilgan. quritkich shaxta (quduqsimon bo'shliq) shaklida bo'lib, suyuq yoqilg'i (traktor kerosini) da ishlaydigan o'txonali havo isitkichga ega.

Yoqilg'ining ishchi vazni tarkibi quyidagicha: $S^r = 86 \%$, $N^r = 13,7 \%$, $S^r = 0,2 \%$, $O^r = 0,05 \%$. Tashqi havo ko'rsatkichlari: $t_0 = 5^\circ\text{S}$, $\phi_0 = 75 \%$. quritish agentining quritkich kamerasi (bo'linmasi)ga kirishdan oldingi harorati $t_1 = 140^\circ\text{C}$, quritish kamerasidan chiqayotgan quritish agentining nisbiy namligi $\phi_0 = 65 \%$. Sovutish kamerasidan chiqayotgan havo harorati $t_3 = 25^\circ\text{C}$. g'allaning quritkichga kirguncha namligi va harorati $\omega_1 = 20 \%$, $\Theta_1 = 5^\circ\text{C}$, quritkichdan chiqayotgan g'alla uchun - $\omega_1 = 15 \%$, $\Theta_1 = 50^\circ\text{C}$, sovuqkich kamerasidan chiqayotgan g'alla uchun - $\omega_1 = 14 \%$, $\Theta_1 = 15^\circ\text{C}$.

Yechish

quritkich agentining ko'rsatkichlarini hisoblash. Ishchi yoqilg'ining yuqori yonish issiqligini quyidagi formuladan topamiz:

$$\begin{aligned} Q_B^p &= 340 \cdot C^p + 1260 \cdot H^p + 104 \cdot (O^p - S_A^p) = \\ &= 340 \cdot 86 + 1260 \cdot 13,7 - 104 \cdot (0,05 - 0,2) = 46470 \quad , \text{ kJ/kg.} \end{aligned}$$



Rasm 8. quritkich qurilmasini hisoblash sxemasi.

1 kg yoqilg'ining to'liq yonishi uchun kerak bo'ladigan nazariy quruq havo miqdori quyidagi formuladan topiladi:

$$L_0 = 0,115 \cdot C^r + 0,345 \cdot N^r - 0,043 \cdot (O^r - S_1^r) = \\ = 0,0115 \cdot 86 + 0,345 \cdot 13,7 - 0,043 \cdot (0,05 - 0,2) = 14,6 \text{ kg/kg.}$$

Ortiqcha havo miqdori koeffitsiyentini quyidagi formuladan topamiz:

$$\alpha = \frac{Q_B^p \cdot \eta_t + c_T \cdot t_T - \frac{9H^p + W^p}{100} \cdot i_n - \left(1 - \frac{9H^p + W^p + A^p}{100}\right) \cdot c_{c.a} \cdot t_{c.a}}{L_0 \cdot \left(\frac{d_0 \cdot i_n}{1000} - l_0 + c_{c.a} \cdot t_{c.a}\right)},$$

bunda η_t - o'txonaning foydali ish koeffitsiyenti bo'lib, o'txonadan chiqayotgan gazlar issiqligining sarf bo'lgan yoqilg'i issiqligiga nisbati bilan aniqlanadi (qattiq va suyuq yoqilg'ilarda ishlaydigan g'alla quritkichlar o'txonasi uchun $\eta_t = 0,9$, gaz bilan ishlaganda $\eta_t = 0,95$); $s_1 = 2,1 \text{ kJ/(kg } ^\circ\text{C)}$ - yoqilg'ining issiqlik sig'imi; t_t - yoqilg'ining harorati,

qabul qilamiz: $t_i = 5\text{ }^{\circ}\text{C}$; i - berilgan haroratda quritish agentidagi suv bug'lari entalpiyasi, u quyidagi formuladan topiladi:

$$i_p = 2500 + 1,84 \cdot t_{c,a} = 2500 + 1,84 \cdot 140 = 2760 \text{ kJ/kg};$$

$s_{s,a}$ - quritish agentining issiqlik sig'imi, $s_{s,a} = 1 \text{ kJ/(kg} \cdot ^{\circ}\text{S)}$; $t_{c,a}$ - quritish agentining harorati, $t_{c,a} = 140\text{ }^{\circ}\text{C}$; I_o - atmosfera havosining entalg'piyasi, kJ/kg quruq havo; d_o - atmosfera havosining nam saqlash xususiyati, g/kg quruq havo. I_o va d_o larni nam havoning I - d diagrammasi yordamida topamiz (9 rasm): $I_o = 15,2 \text{ kJ/kg}$; $d_o = 4 \text{ g/kg}$.

$$\alpha = \frac{46470 \cdot 0,9 + 2,1 \cdot 5 - \frac{9 \cdot 13,7}{100} \cdot 2760 - \left(1 - \frac{9 \cdot 13,7}{100}\right) \cdot 1 \cdot 140}{14,6 \cdot \left(\frac{4 \cdot 2760}{1000} - 15,2 + 1 \cdot 140\right)} = 19,3$$

quritish agenti tarkibi gaz-havo aralashmasidan iborat. Uning boshlang'ich nam saqlashi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$d_1 = \frac{10 \cdot (9H^p + W^p) + \alpha \cdot L_o \cdot d_o}{\alpha \cdot L_o + 1 - \frac{A^p + 9H^p + W^p}{100}}$$

